Audit jarayonida resurslarni samarali taqsimlash va to'g'ri rejalashtirish hali hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moliyaviy, insoniy va texnologik resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi audit sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, jarayonlarning kechikishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarning keng joriy etilishi zarur. Bu tizimlar yordamida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish jarayoni tezlashadi va inson omiliga bog'liq xatoliklar kamayadi. Shuningdek, resurslarni oqilona taqsimlash bilan birga auditning har bir bosqichida jarayonlarni kuzatib borish ham muhim hisoblanadi.

Noaniqlik va xavf-xatarlarni boshqarishda yuzaga keladigan kamchiliklar ham auditorlik jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy o'zgaruvchanlik va huquqiy noaniqliklar xavflarni oshiradi va audit jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli, bu xavflarni kamaytirish uchun sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni tahlil qilishdan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Risklarni aniqlash va boshqarish vositalari audit jarayonlarini yanada shaffof va samarali qiladi, bu esa moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirishga yordam beradi.

Muloqotning yetarli darajada tashkil etilmaganligi tashkilot ichida va tashqi manfaatdor tomonlar bilan kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Qaror qabul qilish jarayonida barcha tomonlarning faol ishtiroki va ochiq kommunikatsiya tizimini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Aniq kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqish va uni loyihaning barcha bosqichlarida tatbiq etish ma'lumotlarning to'g'ri tarqalishini ta'minlaydi va audit samaradorligini oshiradi.

Ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ishonchli manbalarga asoslanish muddati o'tgan qarzlarni auditi samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Noto'g'ri tahlil yoki xato qarorlar moliyaviy xatoliklarga olib kelishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali yig'ish bu muammoni samarali hal qilishga yordam beradi. Ushbu yechimlar audit jarayonini nafaqat tezlashtiradi, balki uning aniqligi va ishonchliligini ham oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, muddati o'tgan debitor va kreditor qarzlarning auditi samaradorligini oshirish uchun resurslarni to'g'ri boshqarish, xavflarni minimallashtirish, samarali muloqotni tashkil etish va zamonaviy tahlil vositalarini joriy etish juda muhimdir. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish tashkilotlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va

raqobatbardoshlikni mustahkamlashga yordam beradi. Natijada, bu o'z navbatida milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

### **Manbalar ro'yxati**

1. **Project Management Institute (PMI).** *A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK Guide), 7th Edition*, PMI Publications, 2021. Loyiha boshqaruvi metodologiyasining xalqaro standartlari va qaror qabul qilish jarayonining metodologik asoslari. Ushbu manba auditorlarga qaror qabul qilish va audit jarayonini samarali boshqarishda metodologik yondashuvlarni taqdim etadi.
2. **International Financial Reporting Standards (IFRS).** *IFRS Standards for Financial Reporting*, International Accounting Standards Board, 2023. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va ularni bank sektorida qo'llash. Muddati o'tgan debitor va kreditor qarzlarni audit qilishda moliyaviy hisobotlarni to'g'ri tayyorlash va nazorat qilish usullarini ko'rsatadi.
3. **Agile Alliance.** *The Agile Manifesto and Methodologies*, Agile Alliance Publications, 2022. Zamonaviy boshqaruv tizimlarida moslashuvchan metodologiyalarning roli. Muddati o'tgan debitor va kreditor qarzlarni audit qilishda moslashuvchan yondashuvlarni qo'llash orqali samarali natijalarga erishish usullari.
4. **World Bank Group.** *Data on Financial Inclusion and Banking Sector Trends*, World Bank Reports, 2022. Bank sektorining rivojlanishi va moliyaviy inklyuziya tendensiyalari. Muddati o'tgan debitor va kreditor qarzlarni audit qilishda bank sektori va moliyaviy inklyuziya darajasining ta'sirini tahlil qilishga yordam beradi.
5. **Statistika qo'mitasi (O'zbekiston).** *O'zbekistonda moliya bozori dinamikasi (2018–2022)*, 2023. O'zbekistonning bank kapitali bo'yicha statistik ma'lumotlari. O'zbekistonda muddati o'tgan debitor va kreditor qarzlarning statistik tahlili va ularni audit qilish jarayonida qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.
6. Sherimbetov I. va Xaydarov A.(2018). "AUDIT". namdu.uz
7. Yadgarova M.L. va Qurbonov R.(2019). "“Bank auditi” fanidan o'quv-uslubiy majmua". namdu.uz.
8. **North American Accounting Studies. (2020).** "Cardinal Corporation-da debitorlik qarzlari va shubhali debitorlik qarzlari uchun zaxiralarni audit qilish". neiu.d.edu.
9. Internal Audit Standards Board.(2012). "Technical Guide on Stock and Receivables Audit". kb.icai.org
10. Техническая статья CPD (2015). "Аудиторские доказательства и особые соображения по определенным пунктам". www.accaglobal.com.

## HISSIIY CHARCHOQNI YUZAGA KELTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

*Jo'rayeva Go'zal Chori qizi*

*Surxondaryo viloyati Qumqörğon tumani 2-umumta'lim maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada salomatlikka psixologik qarashlar, “hissiy charchoq” sindromi, “Ruhiiy salomatlik”, ijtimoiy soha vakillarining kasbiy faoliyatidagi “hissiy charchoq”, “hissiy charchoq” belgilari va uning murakkab psixofiziologik hodisa ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kali so'zlar:** ijtimoiy soha vakillari, axloqiy-psixologik omillar, salbiy ruhiy tajribalar va holatlar, professional mutaxassislarining psixofiziologik xususiyatlari, kasbiy stress, “hissiy charchoq” sindromi, “hissiy charchoq” belgilari.

### KIRISH.

Insonning ijtimoiy muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri bu ruhiy salomatlikdir. Salomatlikka psixologik qarashlarni o'rganishdan oldin, keling, dastlabki savollarga aniqlik kiritaylik. Zamonaviy ilm-fanda “salomatlik” tushunchasi umumiy qabul qilingan yagona talqinga ega emas, u noaniqligi va xilma-xilligi bilan tavsiflanadi. 1948-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Konstitutsiyasining muqaddimasida berilgan ta'rifga ko'ra, “sog'liq” - bu nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo'qligi, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik bilan tavsiflangan insonning holatidir.

Salomatlikning to'liq ratsional ta'riflari esa kelajak masalasi bo'lib qolmoqda. Sog'liqni saqlash muammosiga bugungi kunda mamlakatimizda xam ko'p ishlar qilinmoqdaki, bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorini misol qilishiz mumkin. Unga ko'ra bugungi kunda o'tgan vaqt mobaynida aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish milliy xizmatini takomillashtirish, ruhiy holati buzilishidan aziyat chekuvchi shaxslarni aniqlash, davolash va reabilitatsiya qilish bo'yicha sog'liqni saqlash tizimining barcha darajalarida muayyan ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga “Ruhiiy salomatlik” borasida ham ishlar yo'lga qo'yilganligi quvonarli holdir.

Ruhiiy salomatlik deganda biz, turli ruhiy buzilish yoki salbiy ruhiy xolat ko'rinishlarining yo'qligi va atrofdagi voqelik sharoitlariga mos keladigan xatti-harakatlarning tartibga solinishini ta'minlaydigan ruhiy farovonlik holatidir. Lekin, salbiy ruhiy xolatni bugungi kunda ba'zi odamlarda, turli kasb egalarida kuzatishimiz mumkin. Asosan bu holat ijtimoiy soha vakillarida kuzatilmoqda.

Ijtimoiy soha vakillarining kasbiy faoliyati, bajaradigan ish turidan qat'i nazar, odamlar, aholi guruhlari va umuman jamiyatning sog'lig'i va hayoti uchun ma'naviy javobgarligi yuqori bo'lgan kasblar guruhiga kiradi. Ijtimoiy kasb egalari mijoz bilan murakkab ijtimoiy o'zaro munosabat jarayonida bo'lgan doimiy stressli vaziyatlar, mijozning ijtimoiy muammolarining mohiyatini doimiy ravishda tushunish, ishonch va boshqa axloqiy-psixologik omillar uning sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Ijtimoiy kasb egalari, shu jumladan hokimiyat vakillari, pedagoglar, shifokorlar, o'z faoliyatining tabiati bo'yicha, boshqa odamlar bilan uzoq muddatli intensiv aloqada bo'ladilar. Odamlar bilan ishlashda kuchli shaxslararo o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan, hissiy zo'riqish va kognitiv bosim bilan birga keladigan jismoniy va ruhiy charchoq holati sifatida namoyon bo'ladigan "hissiy charchash" bugungi kunda barchaga ma'lum. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, salbiy ruhiy tajribalar va holatlar mehnat jarayonining turli jabhalariga ta'sir qilishi mumkin - kasbiy faoliyat, kasb egasining shaxsi, kasbiy muloqot, umuman olganda, shaxsning kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Ijtimoiy soha professional mutaxassislarining psixofiziologik xususiyatlariga qat'iy talablar qo'yadi va ijtimoiy ish mutaxassislarini tanlash, moslashtirish va hissiy "charchoq" sindromining oldini olishning ilmiy asoslangan usullarini talab qiladi. Bugungi kunga kelib, ijtimoiy soha egalarining kasbiy faoliyatida stressga chidamliligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar sanoqli bo'lib, bu ilm ahlini ushbu muammoni ishlab chiqishga etarlicha e'tibor berilmaganligini ko'rsatadi. An'anaga ko'ra, jamoat ongida ham, ilmiy adabiyotlarda ham, birinchi navbatda, odamlar bilan ishlashning ijobiy tomonlariga (shifokorlar, o'qituvchilar, ijtimoiy xodimlar va boshqalar) urg'u beriladi. Shu bilan birga, bu odamlar bilan ishlash o'zining yuqori talablari, alohida mas'uliyati va hissiy stressi tufayli mehnat sharoitlari bilan bog'liq qiyin tajribalar xavfini va kasbiy stress ehtimolini o'z ichiga olishi aniq. Birinchi marta amerikalik mutaxassislar "hissiy charchoq" sindromi muammosiga ijtimoiy xizmat sohalarini kengaytirish va ommalashtirish munosabati bilan e'tibor qaratdilar. Ularning ishchilari kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan yoki psixologiya yoki sotsiologiya sohasiga maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutahassislarga qoida tariqasida, juda og'ir muammolari bilan kelgan mijozlar bilan ishlash jarayonida duch keldilar. Ba'zan bunday holatlarda ularning yagona vazifasi psixologik yordam ko'rsatish - tinglash, qo'llab-quvvatlash, iloji bo'lsa, biror nima deb maslahat berish edi. Maxsus tayyorgarlik va xodimlarni tanlashga qaramay, ushbu xizmatlarning rahbariyati ma'lum vaqt o'tgach o'z xodimlarining qoniqarsiz ishlayotganligi haqidagi dalillariga duch kelganlar. Xodimlarning bunday qoniqarsiz ishlayotganligini, tashrif buyuruvchilarga e'tiborsizlik, befarqlik va hatto qo'polligi haqida shikoyatlardan aniqlaganlar. O'tkazilgan tadqiqotlar o'ziga xos kasbiy stress – "muloqot stressi"ni aniqlashga olib keldi, bu boshqa kasbiy stresslar bilan birgalikda

“hissiy charchash” deb ataladigan hodisaning paydo bo‘lishiga sababi edi. “Hissiy charchoq” atamasi 1974 yilda amerikalik psixiatr H.J.Freudenberger tomonidan mijozlar bilan intensiv va yaqindan muloqotda bo‘lgan sog‘lom odamlarning psixologik holatini tavsiflash uchun kiritilgan. Dastlab, bu atama oddiygina charchash holatini anglatgan. “Hissiy charchoq” tushunchasi odatda odamning yuqori hissiy idrokni o‘z ichiga olgan vaziyatlarda uzoq vaqt ishtirok etishi natijasida yuzaga keladigan jismoniy, hissiy va ruhiy charchoq holatini ifodalash uchun ishlatildi, bu esa o‘z navbatida haddan tashqari yuqori surunkali situatsion stresslar bilan hissiy holatlarning kombinatsiyasi natijasidir.

K.Maslachning 1976-yilda “Human Behavior” jurnalida chop etilgan ushbu mavzudagi birinchi maqolasi, o‘z e’tirofiga ko‘ra, ayniqsa, noprofessionallar orasida katta va kutilmagan munosabatga sabab bo‘ldi. Va shu maqola sabab, u turli ijtimoiy kasb egalaridan ko‘plab xatlar oldi. Atigi o‘n yildan so‘ng “hissiy charchoq” sindromi muammolari bo‘yicha mingdan ortiq maqolalar chop etildi. “Hissiy charchoq” sindromiga tashxis qo‘yishning maxsus usullari ishlab chiqildi. Agar dastlab tibbiyot xodimlarining muammolarini tavsiflash haqida bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi tadqiqotlar aniqlangan fenomenolarini turli kasb egalarining keng doirasiga etkazish imkonini berdi. K.Kondo “hissiy charchoq” sindromini ishning haddan tashqari og‘irligi va shaxslararo munosabatlarning noto‘g‘riligi tufayli ish joyiga moslashmaslik deb ta’riflaydi. Ushbu ta’rif uning “yonish” tushunchasini talqiniga mos keladi. Bu birinchi navbatda odamlar bilan alturistik va intensiv ishlaydiganlarga ta’sir qiladi. Bunday emotsional hissiy ish ruhiy energiyaning haddan tashqari sarflanishi bilan birga keladi va psixosomatik charchoq (holdan toyish) va hissiy charchoq (toliqish) olib keladi. Natijada bezovtalik (tashvish), nafas qisilishi, oshqozon-ichak traktining buzilishi, bosh og‘rig‘i, qon bosimining pasayishi, uyquning buzilishi fonida norozilik hussi, g‘azab, o‘ziga bahoning pasayishi; hamda qoidaga ko‘ra, oilaviy munosabatlardagi muammolar paydo bo‘ladi.

“Hissiy charchoq” fenomenini keltirib chiqaradigan stress omillarining ta’siri turli kasblarni sezilarli qismini qamrab oladi va bu kasallikka moyil bo‘lganlar sonini kengayishiga sabab bo‘ladi. Ushbu hodisaning dastlabki tadqiqotlari asosan unga tavsif berish bilan cheklangan bo‘lsalar, 1982-yilga kelib “hissiy charchoq”ni o‘rganish bo‘yicha etakchi mutaxassislardan biri Maslach bu hodisani maxsus holat deb atadi. Unga ko‘ra:

- holdan toyish;
- degumanizatsiya, depersonalizatsiya belgilari;
- salbiy o‘z-o‘zini idrok qilish;
- kasbiy mohirlikni yo‘qotish

1983 yilda E.Maher o‘z sharhida “hissiy charchash” belgilari ro‘yxatini umumlashtiradi: charchoq, toliqish, horg‘inlik; psixosomatik kasalliklar, uyqusizlik,

mijozlarga salbiy munosabat; ishning o'ziga salbiy munosabat; faoliyatda harakatlarning sustligi; kimyoviy vositalarni ortiqcha iste'moli: tamaki, qahva, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar; ishtahaning sustligi yoki aksincha, ortiqcha ovqatlanish, salbiy "Men-kontsepsiyasi"; tajovuzkor his-tuyg'ular (asabiylashish, zo'riqish, tashvish, holsizlik, haddan tashqari hayajonlanish, g'azab); salbiy kayfiyat va u bilan bog'liq his-tuyg'ular (beadablik, pessimizm, umidsizlik hissi, befarqlik, tushkunlik, samarasiz harakat); aybdorlik hissini boshdan kechirish.

1981 yilda S.Maslach sindromga duchor bo'lgan shaxsning quyidagi muhim belgilarini ajratib ko'rsatdi: o'z "men"ini saqlab qolish asosidagi charchoqqa qarshi kurashi. "Charchoq"qa qarshi turish qobiliyatining chegarasi; ichki psixologik tajriba, shu jumladan his-tuyg'ular, munosabatlar, motivlar, umidlar; salbiy shaxsiy tajriba; qayg'u, noqulaylik, disfunktsiya yoki ularning oqibatlarini. "Charchoq" sindromining asosiy belgilari:

- holdan toyganlik hissi;
- mijozlarga nisbatan salbiy his-tuyg'ularning mavjudligi; - o'z-o'ziga salbiy munosabat.

Sindromning bu belgilari uning namoyon bo'lishini o'rgangan va kuzatgan ko'pchilik klinitsistlar tomonidan qayd etilgan. Hissiy charchoq sindromining asosiy belgilarining mohiyati olimlar tomonidan aniqlangandan so'ng va bu hodisa umume'tirof etilgandan so'ng, tabiiy ravishda ushbu kasallikning rivojlanishiga yordam beradigan yoki unga to'sqinlik qiladigan omillarni aniqlash va tasniflash masalasi paydo bo'ldi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, hissiy charchashga asosan kasb egalarining to'rtta amal qiladigan pozitsiyasi olib keladi:

- Men xato qila olmayman.
- Men ehtiyotkor bo'lishim kerak.
- Men tarafkashlikka haqqim yo'q.
- Men hamma narsada namuna bo'lishim kerak.

Ba'zi tadqiqotchilar (P.Tornton) shaxs omilini o'rganishda quyidagi ko'rsatkichlarni yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, ish staji, ma'lumot darajasi, ish staji, ijtimoiy kelib chiqishi hisobga oldilar. Biroq, ularga "hissiy charchoq" darajasiga bog'liq emasligi ma'lum bo'ldi. Boshqa tadqiqotchilar (A.Pins) motivatsiya va "charchoq" o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor berishdi; Xususan, mehnat faoliyati motivlari ish haqidan qoniqish, ish joyida kerakligini his qilish, kasbiy yuksalish, mustaqillik va rahbariyat tomonidan nazorat darajasi va boshqalar o'rganildi. Lekin "hissiy charchoq" sindromi va ish haqi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik yo'q edi. Shu bilan birga, kasbiy o'sishdan norozilik va qo'llab-quvvatlovchi munosabat (turli mukofotlar, rag'batlar) "hissiy charchoq" sindromining rivojlanishi bilan ko'proq bog'liq bo'lib chiqdi. Mustaqillik etishmasligi ("ortiqcha

nazorat”) bo‘lgan ijtimoiy ishchilar uchun “hissiy charchoq”qa ko‘proq moyillik ham aniqlandi. Ijtimoiy kasb, shuningdek, psixologik maslahat va psixoterapiya ko‘p hissiy stressni, mas’uliyatni talab qiladigan va muvaffaqiyat uchun juda noaniq mezonlarga ega bo‘lgan kasblar sifatida tasniflanadi. Afsuski ushbu kasblar vakillari “hissiy charchoq” xavfi ostida ekanlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Hissiy charchoq” sindromi murakkab psixofiziologik hodisa bo‘lib, u uzoq davom etgan ortiqcha stress tufayli hissiy, aqliy va jismoniy charchoq sifatida tavsiflanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bunday buzilishlar mehnat jarayonining turli jabhalariga – kasb egasiga, faoliyatiga, kasbiy mulohazaga ta’sir qilishi mumkin. Bu buzilishlar, odatda, odamda “hissiy charchoq” paydo bo‘lishidan iborat - bu salbiy ko‘rsatkichlar to‘plamini o‘z ichiga olgan simptomlar majmuasi, uning ta’siri ostida mutaxassisning shaxsi yo‘qoladi, u o‘z imkoniyatlari va vositalaridan foydalana olmaydi. Hamda aqliy charchoq holati bilan bog‘liq yoki mehnat ko‘nikma va qobiliyatlarini yo‘qotadi. Natijada, kasbiy faoliyatning buzilishi va deformatsiyasi yuzaga keladi. Umuman mehnat unumdorligi pasayadi. Shu munosabat bilan, profilaktika va ijtimoiy ishchining ruhiy gigienasini ta’minlashga alohida e’tibor berilishi va ijtimoiy xodimlarning o‘ziga psixologik yordam tizimini yaratishga yordam berish kerak.

Korey (1986) va Naisberg-Fennig (1991) tomonidan ta’riflanganidek, charchash sindromi depressiya holatida, charchoq va holdan toyish hissi, g‘ayrat va ishtiyoqning etishmasligi, ijobiy natijalarni ko‘rish qobiliyatining yo‘qolishi bilan ifodalanadi. Shu sabab o‘z ishiga, mehnatga va umuman hayotga salbiy munosabat paydo bo‘ladi.

#### **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Баробанова М.В. Изучение психологического содержания синдрома «эмоционального сгорания»// Вестник МГУ.–сер.14, Психология.– 1995.– №1.– стр.54-58.
2. Орел В.Е. Феномен «выгорания» в зарубежной психологии. Эмпирические исследования//Психологический журнал.– 2001.– №1.–стр.16-21.
3. Синдром сгорания. Защитные механизмы.–Меры профилактики//Вестник РАТЭПП.– 1995. –№1.
4. Словарь-справочник по социальной работе/ Холостова Е.И.– М.:Юрист, 2000г.– 424с.
5. Топчий Л.В. Кадровое обеспечение социальных служб: состояние и перспективы развития.–М ,1997.
6. Фирсов М.В. Студенова Е.Г. Теория социальной работы: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений.– М.: Владос,2001.– 432с.

**PEDAGOGIK JAMOANING PSIXOLOGIK SALOMATLIGI***Yusupova Shodiya Avaz qizi**Toshkent shaxar Yakkasaroy tumani 127- umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada pedagogik jamoani muvaffaqiyatli boshqarish uchun jamoa tarkibini o'rganish, kamchiliklarini korreksiyalash va haqiqiy pedagogik jamoa sifatida shakllantirishga oid qarashlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlangan darajasi ham muvaffaqiyatli jamoa uchun asosiy omillardan biridir. Jamoada ishlash muloqot vositasida amalga oshadi. Pedagogik jamoaning rivojlanishida shaxslararo muloqot muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchilar jamoasi, shaxs kamoloti, ta'lim-tarbiya, ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, pedagogik faoliyat.

**KIRISH**

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi. Pedagog uchun qo'shimcha, lekin nisbatan turg'un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon xulq, yaxshi did-farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu xususiyatlar eng asosiy o'rinda turmasada, ammo o'qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi. Bosh va ikkilamchi pedagogik xossalar jamlanib, pedagogning shaxsiyatini aniqlaydi, shu jihatlar kuchi bilan har bir o'qituvchi ajoyib va o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog'lik xislatlariga qaratilganligidir. O'qituvchilar jamoasini boshqarish mavzusini yoritishda boshqaruv psixologiyasini, pedagogik psixologiyani, shaxs psixologiyasi hamda muloqot psixologiyasini uzviy o'rganish va ularning kesimida yangi ilmiy muammoni yaratish bugungi yuksak taraqqiyot davrida ta'lim tizimi va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'qituvchilar jamoasining psixologik xususiyatlarini o'rganish, pedagogik faoliyat va o'qituvchi muloqotining o'zaro munosabati masalasi psixologiya fanida bir qadar tadqiq qilingan muammolardan biridir. Biroq mamlakatimizda, hozirgi zamon bolalariga pedagogik ta'sir o'tkazishda o'qituvchi ishlayotgan mikromuhitning ta'siri, bu sohada o'qituvchilarda shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirish, pedagogik jamoani boshqarish orqali u yerda ijodiy muhit va hamkorlikni, kasbga fidoyilik va qiziqishni shakllantirish va bu muammoning psixologik imkoniyatlarini aniqlash o'z yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Chunonchi, o'qituvchining o'z jamoasidagi muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda guruhning ruhiyati, pedagogik

jamoada intellektual taraqqiyoti, irodasi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash, boshqaruv tarkibining psixologik taraqqiyoti kabi psixologik yondoshuvlarga tayanish maqsadga muvofiqdir

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida qonun, Sh.Mirziyoev asarlari, mavzuga doir adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillari qo'llanildi.

### **MUHOKAMA**

Pedagogik faoliyat o'qituvchining o'quvchiga uni shaxs va intellektual jihatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta'limiy va tarbiyaviy ta'sirini o'z ichiga qamrab oladi. Pedagogik faoliyat ham inson faoliyatining boshqa jabhalari kabi tavsiflanadi.

Bu eng avvalo maqsadga yo'nalganlik, motivlashganlik, predmetlilikdir. N.V. Kuzmina ta'rifiga ko'ra, pedagogik faoliyatning muhim jihati — bu uning mahsuldorligidir. Pedagogik faoliyat mahsuldorligining 5 ta darajasi ajratib ko'rsatiladi:

I — (minimal) reproduktiv: pedagog o'zi bilgan narsalarni boshqalarga yetkazib bera oladi;

II — (quyi) moslashgan: pedagog o'z fikrlarini auditoriyaga o'ziga xos jihatlari bilan ma'lum qila oladi;

III — (o'rta) lokal modellashtirilish: o'qituvchi fanning ma'lum bir bo'limi bo'yicha o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarning strategiyasini egallaydi;

IV — (yuqori) o'quvchilar bilimni sistemali modellashtirish; o'qituvchi o'quvchilarda fan malakalarini shakllantirishning yo'l-yo'riqlarini biladi;

V — (eng yuqori) modellashtirilgan tizimli faoliyat va o'quvchilar xulq-atvori. Bunda pedagog o'z fanini o'rgatishdagi yo'lyo'riqlarni shunday egallaydiki, natijada u o'quvchi ehtiyojlarida o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'ziga ta'lim berish, o'z-o'zini rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Pedagogik faoliyat borasida so'z yuritilganda yuqori mahsuldorlik tushunchasi asosiy o'rinni ifodalaydi. Pedagogik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi o'z motivatsiyasi, maqsadi, predmeti, vositalari, usullari, mahsuli va natijasini aks ettiruvchi psixologik mazmuni ifodalaydi.

Pedagogik faoliyatning predmeti bo'lib, shaxs rivojlanishining sharti va asosi bo'lmish ijtimoiy madaniyatni singdirishga qaratilgan o'quv faoliyatining manbai hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning vositalari sifatida ilmiy (nazariy va empirik) bilimlarni ko'rish mumkin. Yordamchi vositalarga esa texnik, kompyuter, grafik vositalarni kiritish mumkin. Pedagog faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy malakani yetkazish bu tushuntirish, ko'rsatish (illyustratsiya), darslik mashqlarini tahsil oluvchilar bilan birga ishlash, tahsil oluvchini bevosita amaliyoti (laboratoriya, amaldagi) va treningdan iborat. Pedagogik faoliyatning mahsuli bo'lib o'quvchining

aksiologik, emotsional mazmuniy, predmetli, baholash mezonlarini aks ettiruvchi individual malakasining shakllanganligi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning natijasi asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda o'quvchilarning shaxsiy, intellektual rivojlanishi, ularni o'quv faoliyatining subyektivi va shaxs sifatida shakllanishi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bu motivatsiya hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda ham o'quv faoliyatdagi kabi motivatsion soha ajratilib ko'rsatiladi. Bu tashqi va ichki motivlardir. Tashqi motiv sifatida biror-bir narsaga erishish istagini, ichki motiv sifatida esa o'z faoliyatining jarayoni va natijasiga e'tibor berishni misol qilish mumkin. Pedagogik faoliyat pedagogik vaziyatdagi turli-tuman xatti-harakatlarning umumlashmasidan iborat: perseptiv, mnemik, kommunikativ, izlanuvchanlik, nazorat qilish, baholash va h.k. Ushbu turlituman faoliyatlarning jamlanmasi bir qancha psixologo-pedagogik funksiyalarni belgilab beradi. P.F.Kapterev o'qituvchiga xos bo'lgan obyektiv va subyektiv xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi. Umumiy ko'rinishda u quyidagicha aks etadi:

O'zaro munosabat doirasida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi ta'sirlashuvning emotsional darajasini tadqiqot predmeti tarzida qo'yilishi, xususan, tarbiyachilik faoliyatining yo'nalishida kam uchraydi. Bu muammoga oid ishlar jumlasiga G.S.Abramova, A.A.Beknazarov, R.Berns, I.B.Shuvanov va boshqalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Aynan ushbu muammoga aloqador o'zbek o'qituvchisiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar nihoyatda kamchilikni tashkil etadi. Bu sohada A.A.Beknazarov, F.S.Ismagilova, E.G'.G'oziyev va boshqalarning ishlarini namuna sifatida sanab o'tish joiz. L.Ya.Kolominskiy o'z tadqiqotida o'qituvchining o'quvchilarga munosabati so'zsiz muallim mehnati muvaffaqiyatlarida hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlagan edi. Uning fikricha, bu pedagogik mahoratning muhim tomoni bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabati ko'p jihatdan aynan mana shu jarayonga bog'liqdir. Muallifning ko'rsatishicha, o'zaro munosabatni o'qituvchi shaxsining faolligi va jamoadagi ta'sirlashuv nuqtayi nazaridan yondashgan holda o'rganish ham mumkin ekan. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda pedagogning bolalarga nisbatan munosabatidagi emotsionalqadriyatli yondashuvi uning munosabat uslubidagi motivatsion jihatlari, shuningdek, bir vaqtning o'zida uning o'quvchilarga bo'lgan munosabati jarayonida xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi operatsional jihat bilan belgilanishini qayd qilish mumkin. Qator tadqiqotlarda esa o'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik muomaladagi turli xil jihatlari baholash holati ham o'rganilgan. O'qituvchiga nisbatan o'smirlarning talab va umidlari chet el psixologlari tomonidan tadqiq qilingan bo'lib, A.Djersildning izlanishlariga binoan bolalar quyida qayd qilingan xarakterga ega bolgan o'qituvchilarni afzal hisoblar ekanlar:

- 1) mehribon, quvnoq, javobgarlikni his qiluvchi, barqaror insoniy sifatli;
- 2) haqiqatgo'y, batartib, halol, boshqalarni hurmat ko'rsatadigan,

tashkilotchilik sifatidagi;

3) boshqalar manfaatini o'ylaydigan, xalqparvar, sinf ishlarida o'quvchilarga erkinlik huquqini beruvchi, qiziquvchan, ishtiyoqli va ishchan;

4) yoqimli ovozli, umumiy yoqimtoylik qiyofasidagi o'qituvchi.

V.Kessel tadqiqotlarida o'quvchilarning yosh xususiyatiga bog'liq holda o'qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik motivlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining mashhurligi ko'p jihatdan uning materiallarni ko'rgazmali, jonli va muammoli tarzda yetkaza olish qobiliyatiga bog'liq ekan.

V.S.Abramova, S.M.Ilyusizova, V.A.Kan-Kalik va boshqalar "o'qituvchi-o'quvchi" munosabati bo'yicha tadqiqotlar o'tkazganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining muloqotda do'st sifatida o'z o'rnini o'quvchilarning tengdoshlari va ularning ota-onalariga berganligi ko'rindi. Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N.V. Kuzmina, V. Slastenin, F.N. Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S. Jalilova, A. Jabborov, M. Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan. Bunda o'qituvchilik kasbiga muvofiq yaratilgan professiogrammani ko'rish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asnoda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogik oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining ishlab chiqilishi zarurdir. Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M.Abdullajonova, Ye.Gladkova, A.Mashkurov, T.Hamrokulov, E.Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek maktablarida rus tili va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini (namunasini) aniqlab olish imkoniyatini berdi. Professiogrammada muhim xislatlarning borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi xislatlari ko'rsatib berilishi lozim:

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlari: bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish, aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, kamtarinlik, odamiylik, dilkashlik, uddaburonlik, o'z bilimini oshirishga intilish.

2. Kasbiga xos bilimi: ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi, psixologiya asoslarini, ayniqsa yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi, etnopsixologik bilimlarni egallashi, hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi, hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallaganligi, maktab yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi, o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi,

o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

3. O'z kasbiga xos xislatlari: o'qituvchining kuzatuvchanligi, o'z diqqate'tiborini taqsimlay olishi, pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi, o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini tuta olishi, pedagogik takt, nutqning emotsional ifodalanishi;

4. Shaxsiy pedagogik uddaburonligi: dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi, ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning bilimi o'sishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi, pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtira olish, bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi, o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi; o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

5. Tashkilotchilik malakalari: bolalar jamoasini uyushtira bilishi, turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi, bolalarni nimalar bilandir qiziqtirib, ularni faollashtira olishi, amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi.

6. Kommunikativ malakalari: bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlarni tiklashni bilishi, bolalarning jamoalararo va jamoa ichidagi o'zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi, bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi.

7. Gnostik malakalari: bolalarning asab psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi, o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi, boshqa o'qituvchilarning tajribalarni o'rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi, psixologik-pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi, o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi.

8. Ijodiy xislatlari: pedagogik mahoratini takomillashtirishga intilishi, o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshira olish qobiliyati, o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi; avvalgi voqealar, hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati, o'zining o'quvchiga pedagogik ta'siri natijalarini oldindan ko'ra bilishga intilishi.

Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan modelning asosiy tuzilishi tariqasida quyidagilar keltiriladi: shaxsning jamoatchilik va kasbiy yo'nalishi; pedagogik mahorat va qobiliyati; xarakterining psixologik xususiyatlari; bilish faoliyati; o'qituvchi shaxsining bolalarni kasbga tayyorlash ishlari darajasidagi umumiy taraqqiyoti. Professiogramma yoshlarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi. Professiogrammani kasbga

xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyati va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini albatta ko'rsatish zarurdir. Pedagogik faoliyat tezligi va muvaffaqiyati asosida N.V.Kuzmina o'qituvchilarni uch guruhga boladi:

1. Kasbiy malakalarni tez o'zlashtiradi, o'z faoliyatida tezda muvaffaqiyatga erishadi, dars qoldirmaydi.
2. Kasbiy sifatlarni sekin o'zlashtiradi, ba'zan dars qoldiradi, ammo pedagogik xususiyatlarni sekin-asta bo'lsa-da o'zlashtirib oladi.
3. Ko'p yillik faoliyati davomida ham o'qituvchilik qobiliyatini egallamaydi.

N.V.Kuzmina pedagogik faoliyatga murakkab dinamik sistema sifatida qaraydi. A.I.Sherbakov ishlarida esa pedagogik ta'lim muammolari ko'zga tashlanadi. O'qituvchi shaxsi yo'nalganligining shakllanishi masalasida to'xtalar ekan, muallif o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitish jarayonida e'tiborga olish zarur bo'lgan vaziyatlar xususida o'z tavsiyalarini beradi. Ayniqsa, olim bo'lajak o'qituvchi xulq-atvor xususiyatlarining shakllanishiga asosiy e'tiborni qaratadi.

### **XULOSA**

Pedagog doimo psixologik jihatdan o'z ustida ishlashi kerak. Uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo'nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishi darkor, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bu ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi shuningdek, psixologiya va boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyot, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya. Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat - bu o'zo'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir. O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi: Sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq shuningdek shaxs xislatlari - xulq atvori, emotsional holati, vaziyatga munosabati. Yuqorida qayd etib o'tilgan psixik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish odam xususiyatlari va holatlari, uning irodasi va ichki tuyg'ulari bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ichki tuyg'u barcha psixik holatlarni boshqarishda erkinlik asosi bo'lib xizmat qiladi, iroda bo'lsa xatti-harakatlar quvvati va yo'nalishlarini ta'minlaydi. Ongli ravishda fikrlashni ham boshqarish, uni yanada samaroqliroq qilish mumkin. Tafakkurni o'z-o'zida boshqarishning asosiy usullari quyidagilardir.

- hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa shartlarni diqqat bilan tahlil qilish;
- talab qilingan natijani berilgan shartlar bilan solishtirish, bunday maqsad kerakli natijani olish uchun yetishmagan narsani aniqlash;

— doimiy ravishda mashq o'tkazib borib, tafakkurni chiniqtirish; — tafakkurni aniq yo'nalishdagi mashqlar bilan chiniqtirish, ya'ni ketma-ket izlanish va yetarli darajada hal qilinishning alternatev yo'llarni ko'rib chiqish (bu - vosita anglash jarayoni «sikllanish» deb nomlanadi); — vazifani hal qilishning yo'llari bilan bog'liq bolgan aniq farazlarni o'z ichida yoki ovoz chiqarib so'zlash (gapirish); — bajarib bo'lingan xatti-harakatlar natijalarini va faraz (g'oya)larni doimiy ravishda yozib borish;

— o'z-o'zini emotsional boshqarish organizmning muskul to'qimalari tizimi boshqara bilish qobiliyatiga asoslangan, emotsiogen holatlardan tahlil qilib tafakkurni ongli ravishda faol jalb etish.

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda. Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mamlakatimiz ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilar bilan ta'lim va tarbiyaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'ya oladi. O'qituvchining shaxsiy namunasi va obro'-e'tibori ta'lim-tarbiya jarayonida bolada qat'iy nuqtayi nazarning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

O'qituvchi eng avvalo o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilar faolligini oshirishni esdan chiqarmasligi, yuzaga kelgan muammolarni mustaqil yechishga o'rgatishi, o'quvchi tashabbuskorligi va ijodkorligi asosida o'zining kimligini namoyish etishiga yordamlashishi zarur. Buning uchun o'qituvchi shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlarni to'liq egallagan bo'lishi lozim, bunday o'qituvchilar o'quvchilar bilan ko'proq do'stona muloqotda bo'ladilar, o'zaro fikr almashadilar, mavzuga doir muammoni tahlil qiladilar va bir qarorga keladilar. O'qituvchi bu o'rinda butun e'tiborini mavzu mohiyatini o'quvchilarga singdirishga qaratib, o'quvchilar e'tiborini kechinmalarini va o'zlashtirish imkoniyatlarini alohida e'tiborga oladi. O'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan bilimdonlik, ijodkorlik, mustaqillik hamda pedagogik faoliyati uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etish o'quvtarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridir. Talabalarda kasbni egallashning shakllanishi ularda majburiyat va javobgarlik hissining tarkib topishi bilan bog'liqdir. Ularda ana shunday sifat va kechinmalar to'la shakllangan bo'lsa, bilimlarni egallash yoki kasbiy kamoloti uchun hech narsa to'siq bo'la olmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston, 2020.

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.
3. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. — T.: Sharq. 2000.
5. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. — T.: Fan. 2003.
6. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000.
7. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA
8. JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 732-737.
9. Sulaymonov, J. B. (2021). ABU ZAYD ABDURAHMON IBN XALDUNNING
10. „MUQADDIMA “ASARIDA DAVLAT TUSHUNCHASIGA YONDASHUVLAR TALQINI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 9-14.
11. Sulaymonov, J. B. (2022). ABDURAHMON IBN XALDUN AXLOQIY
12. QARASHLARI VA SARVAPALLI RADHAKRISHNAN AXLOQIY QARASHLARINING QIYOSIY JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 25), 363-373.
13. Сулаймонов, Ж. (2021). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУННИНГ ТАМАДДУН
14. ТАРАҚҚИЁТИ ҲАҚИДАГИ ҚАРАШЛАРИДА ЖАМИЯТ
15. ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1), 451-455.
16. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). ИБН ХАЛДУН ҚАРАШЛАРИДА “ТААССУБ” КАТЕГОРИЯСИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 864-871.
17. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОЙ
18. ҚАРАШЛАРИ ВА ЛИ ЮЛГОК ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 1477-1483.
19. Сулаймонов, Ж. Б. (2022). АБДУРАХМОН ИБН ХАЛДУН ИЖТИМОЙ
20. ҚАРАШЛАРИ ВА КОНФУЦИЙ ИЖТИМОЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ҚИЁСИЙ ЖИҲАТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 613-621.

## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY SIFATLARNI SPORT O'YINLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH

*Ne`matjonova Gulzira Ne`matjon qizi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" yo'nalishining 4 kurs talabasi*

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni sport o'yinlari orqali shakllantirishning asosiy maqsadi ularning umumiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va jismoniy salohiyatni rivojlantirishdir. Ushbu yoshdagi bolalar uchun sport o'yinlari qiziqarli, oson va xavfsiz bo'lishi kerak. Quyida bu jarayonning asosiy jihatlari yoritib berilgan:

### 1. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish:

**Tezlik:** Bolalar uchun estafeta o'yinlari, yugurish va qisqa masofalardagi harakatli o'yinlar yordamida shakllantiriladi.

**Kuch:** To'pni uloqtirish, tortib olish, oddiy jismoniy mashqlar orqali rivojlantirish mumkin.

**Chidamlilik:** Uzluksiz va davomli harakat talab qiladigan o'yinlar (masalan, "Kim uzoqroq yuguradi?" kabi o'yinlar).

**Muvozanat:** Oyoqning birida turish, "qo'l-oyoq" koordinatsiyasini talab qiladigan mashqlar (masalan, "Qadam tashla va turg'un tur").

**Moslashuvchanlik:** Gimnastika mashqlari va o'zgaruvchan sharoitlarda harakat qilishni o'z ichiga olgan o'yinlar.

### 2. Sport o'yinlari turlari:

**Harakatli o'yinlar:** Masalan, "Qop-qop yugurish", "Kim tezroq?" va "Qo'ziqorin yig'uvchi" kabi o'yinlar.

**To'p bilan o'ynaladigan o'yinlar:** "To'pni uloqtirish", "Doira ichida to'pni aylantirish".

**Jamoaviy o'yinlar:** "Kim ko'proq nuqta to'playdi?" yoki kichik jamoalarga bo'linib o'ynaladigan boshqa o'yinlar bolalarning muloqot va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### 3. Mashg'ulotlarni tashkil etish prinsiplari:

**Qiziqarli bo'lish:** Bolalarda o'yin jarayonida qiziqish va motivatsiya bo'lishi kerak.

**Oddiylik:** Sport o'yinlari qoidalari bolalarning yoshiga mos va tushunarli bo'lishi lozim.

**Xavfsizlik:** Mashg'ulot maydoni va jihozlari xavfsiz bo'lishi shart.

**Maqtov va rag'batlantirish:** Bolalarning muvaffaqiyatlarini doim maqtash va rag'batlantirish zarur.

4. Bolalar uchun o'yinlardan misollar:

1. "Quvib o't". Ikki yoki undan ortiq bola yuguradi. Ulardan biri oldinda, boshqasi quvib yetishi kerak.

2. "To'pni doira ichida aylantir". Bolalar doira ichida turib, bir-birlariga to'pni uzatishadi.

3. "Kim uzoqroq sakraydi?" Bolalar navbatma-navbat joydan uzunlikka sakrashadi.

Natijalar: Sport o'yinlari maktabgacha yoshdagi bolalarning nafaqat jismoniy sifatlarini, balki ijtimoiy ko'nikmalarini, mantiqiy fikrlashini va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular sog'lom turmush tarziga poydevor yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni sport o'yinlari vositasida shakllantirish

Maktabgacha yosh (3–7 yosh) bolalar organizmining jadal rivojlanish davri bo'lib, bu davrda ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga e'tibor qaratish juda muhimdir. Sport o'yinlari bolalarning harakat faolligini oshirish, ijtimoiylashuv va aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng samarali vositalardan biridir. Sport o'yinlari yordamida bolalar tezlik, kuch, chidamlilik, muvozanat va moslashuvchanlik kabi asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirishlari mumkin.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda sport o'yinlarining ahamiyati

1. Tezlikni rivojlantirish. Tezlik – bolalar uchun harakatlarni tez bajarish qobiliyati. U quyidagi usullar orqali rivojlantiriladi:

Tez yugurish. Masalan, "Kim tezroq yetadi?" yoki "Orzu joyingga yugur" kabi o'yinlar. Tez reaksiyalarni talab qiluvchi o'yinlar: "Kim oldin ushlaydi?" yoki "Signalga qarab yugur" o'yinlari.

2. Kuchni rivojlantirish. Kuch bolalarning mushaklarini mustahkamlaydi va ularga turli xil harakatlarni oson amalga oshirishga yordam beradi.

To'p uloqtirish: Bolalar to'pni uzoqqa uloqtirishda qo'l va yelka mushaklarini ishlatadi.

Sakrash mashqlari: "Arslon sakrashi" yoki "Kim uzoq sakraydi?" o'yinlari yordamida oyoq mushaklari rivojlantiriladi.

3. Chidamlilikni rivojlantirish. Chidamlilik uzoq vaqt davomida faol bo'lish qobiliyatidir. Uzluksiz yugurish yoki uzoq davom etadigan harakatlar talab qiluvchi o'yinlar bolalarning yurak-tomir tizimini rivojlantiradi. Masalan, "Estafeta poygasi", "Charchamas qahramonlar".

4. Muvozanatni rivojlantirish. Muvozanat turli holatlarda tana boshqaruvini saqlash qobiliyatidir. Bir oyoqda turish: "Turna oyog'i" o'yini orqali bolalar muvozanatni saqlashni o'rganadi. Koordinatsiya mashqlari: Masalan, "Qadam bos va to'xtab tur".

5. Moslashuvchanlikni rivojlantirish. Moslashuvchanlik tana a'zolarining harakatchanligini ta'minlaydi. Gimnastik harakatlar: "Kim pastroq egiladi?" yoki "Qisqa yo'l bilan o't" kabi o'yinlar.

Sport o'yinlarining pedagogik ahamiyati.

Sport o'yinlari bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan birga, quyidagi pedagogik maqsadlarga ham xizmat qiladi:

1. Ijtimoiy ko'nikmalar: Jamoaviy o'yinlar orqali bolalar hamkorlikni, raqobatlashishni va qo'llab-quvvatlashni o'rganadi.

2. Qoidabuzarlikni kamaytirish: O'yin qoidalariga amal qilish orqali bolalar tartib-intizomga rioya qilishni o'rganadi.

3. Mantiqiy fikrlash: Muammolarni hal qilish (masalan, to'pni nishonga urish), strategiyalarni ishlab chiqish kabi qobiliyatlar rivojlanadi.

4. Emotsional rivojlanish: G'alaba va mag'lubiyatni qabul qilish, muvaffaqiyat uchun mehnat qilishni o'rganish.

Sport o'yinlari tashkil etish prinsiplari.

1. Yosh xususiyatlariga moslashuv:

Mashqlar va o'yinlar bolaning jismoniy va psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Masalan, 3–4 yoshdagi bolalar uchun qisqa muddatli, sodda o'yinlar tanlanadi.

2. Xavfsizlik. O'yin joyi xavfsiz, bolalar jarohatlanmaydigan darajada jihozlangan bo'lishi lozim.

Nowadays, there is a lack of attention and a decrease in motivation towards education in many schoolchildren and students. How international assessment programs can have a motivational impact on this problem involves a complex set of issues.

When evaluating the motivational value of international evaluation programs, the following aspects should be considered:

**Positive effects:**

A sense of competitiveness: International assessment programs allow pupils and students to test their knowledge and skills in an internationally assessed environment. The results of such evaluation show the development in their knowledge and skills, which positively affects their self-esteem and self-confidence. The sense of competitiveness encourages them to participate more actively in the educational process.

Understanding Standards and Objectives: International Assessment Standards help students understand what they are expected to achieve and what the specific learning objectives are. Encourages them to take steps to achieve goals, identify their strengths and weaknesses, and develop effective learning strategies.

Sense of achievement: Successful assessment results create a positive attitude and motivation towards learning in pupils and students. High grades give them confidence in their interests and abilities, which motivates them to focus even more on their studies.

International learning: International assessment programs allow students to experience and interact with other cultures and education systems around the world, which can increase motivation to learn.

**Conclusion:**

International assessment programs offer valuable data and insights that can inform educational policy and practice. However, their impact is not without its limitations and potential downsides. To maximize the benefits and mitigate the risks, it's crucial for countries to:

Use the data strategically: Interpreting assessment results carefully and avoiding over-reliance on rankings is essential.

Focus on holistic development: Maintaining a balanced curriculum that promotes critical thinking, creativity, and well-rounded education is crucial.

Promote equitable access to quality education: Addressing inequalities within education systems is vital to ensure fair and meaningful comparisons.

Foster professional development: Equipping teachers with the necessary skills and resources to effectively utilize assessment data for improved teaching practices is essential.

By adopting a balanced approach, nations can harness the potential of international assessment programs to improve their education systems while minimizing the negative consequences. The key lies in recognizing these programs as tools for improvement, not ultimate measures of success.

**References:**

1. “Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Foy, P., & Hooper, M. (2020)”. TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center. [Link to Report](<https://timssandpirls.bc.edu/timss2019/international-resultstimss.html>)
2. “Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Foy, P., & Hooper, M. (2016)”. TIMSS 2015 International Results in Mathematics and Science. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center. [Link to Report](<https://timssandpirls.bc.edu/timss2015/international-resultstimss.html>)  
“Martin, M.O., Mullis, I.V.S., & Foy, P. (2016)”. The TIMSS 2015 Assessment Frameworks. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.
3. [Link to Frameworks](<https://timssandpirls.bc.edu/timss2015/frameworks.html>)
4. “OECD (2020)”. PISA 2018 Results: What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing. (Provides context on international assessments) [Link to PISA](<https://www.oecd.org/pisa/publications/pisa-2018-results.htm>)
5. “Baker, D.P., & LeTendre, G.K. (2005)”. National Differences, Global Connections: Conceptual Frameworks for Comparative Education. Stanford University Press. (Discusses the implications of international assessments including TIMSS.)
6. “National Center for Education Statistics (NCES)”. The Condition of Education 2020. Washington, D.C.: U.S. Department of Education. (Includes data related to international assessments.)

**Web-sites:**

- 1) <https://www.wikipedia.org/>
- 2) <https://www.oecd.org/en/about/programmes/pisa.html>

## ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШ ШАРТНОМАЛАРИНИ ТУЗИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

*Наримбетов Халилло*

*Тошкент давлат транспорт университети  
иқтисодиёт факултети 4-курс босқичи талабаси*

### АННОТАЦИЯ

Тадқиқот ишида Ўзбекистон Республикасида темир йўл транспортида хизматлар кўрсатишнинг аҳамияти, назарий-ҳуқуқий асослари ва ўзига хос жиҳатлари, миллий қонунчиликда акс эттирилиши ҳамда айрим концептуал масалалар, хизматлар кўрсатишда аутсорсингдан фойдаланиш ва унинг истиқболлари, фуқаролик-ҳуқуқий муаммолар ва уларга ечим сифатида таклиф-тавсиялар хусусида фикр юритилади.

*Калит сўзлар: фриланс, фрилансер, аутсорсинг, аутстаффинг.*

### АННОТАЦИЯ

В исследовательской работе рассмотрены значение оказания услуг на железнодорожном транспорте в Республике Узбекистан, его теоретико-правовые основы и особенности, его отражение в национальном законодательстве и некоторые концептуальные вопросы, использование аутсорсинга при оказании услуг и ее перспективы, дается мнение по гражданско-правовым проблемам и предложениям по их решению.

*Ключевые слова: фриланс, фрилансер, аутсорсинг, аутстаффинг.*

### ABSTRACT

The research work examines the importance of the provision of services in railway transport in the Republic of Uzbekistan, its theoretical and legal foundations and specific aspects, its reflection in national legislation and some conceptual issues, the use of outsourcing in the provision of services and its prospects, an opinion on civil-legal problems and suggestions as a solution to them is conducted.

**Key words:** freelance, freelancer, outsourcing, outstaffing.

### I. Кириш қисм

Темир йўл транспортида хизматлар кўрсатишнинг ривожланиши мамлакат келажаги ва тараққиётида ўз ўрнига эга ҳисобланади. Ривожланган давлатларнинг ривожланиш сабаблари негизида ҳам кучли логистика тизими ташкил этилишининг асоси бўлган темир йўл тармоқлари ётади. Саноатлашиш даврида бозорларга товарларни олиб бориш, хомашё ташиш, ўзлаштирилмаган янги ҳудудларни ўзлаштиришда темир йўл тармоғидан бошқа алтернатив логистика тармоқлари мавжуд бўлмаган. Бугунги кунда оптимал алтернатив

инфраструктура тармоқлари кўпайиб, темир йўл тармоқларида хизматлар кўрсатишнинг улуши пасайган бўлса-да, ўз актуаллигини йўқотганлиги йўқ. Юртимизда ҳам ушбу соҳани такомиллаштириш устувор вазифалардан бири ҳисобланади ҳамда давлат сиёсати даражасига кўтарилган.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан: “Ҳар қандай иқтисод учун темир йўлнинг ўрни жуда катта. Агар шу вақтгача Хитой ёки бошқа Осиё давлатларига олиб чиқадиган темир йўл қурганимизда эди, кўшимча бозорлар пайдо бўларди, ишлаб чиқараётган маҳсулотларимиз таннари 60-70 фоизга камайган бўларди” – дея фикр билдирилиб, ушбу йўналишда ислохотлар зарурлиги таъкидланди [1].

2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида: “Барча транспорт турларини узвий боғлаган ҳолда ягона транспорт тизимини ривожлантириш, йирик шаҳарлар ўртасида кунлик транспорт қатновлари асосида манзилга етиб бориш ва қайтиб келиш имкониятини яратиш. Шаҳарлараро ва шаҳар атрофи темир йўл қатновлари жозибадорлигини ошириш. Транспорт ва логистика хизматлари бозори ва инфратузилмасини ривожлантириш, темир йўл инфратузилма-сини электрлаштириш даражасини 60 фоизга етказиш ва автомобиль йўллари тармоғини жадал ривожлантириш. Транспорт соҳасида ташқи савдо учун «яшил коридорлар» ҳамда транзит имкониятларини кенгайтириш ва транзит юк ҳажмини 15 миллион тоннага етказиш” [2] мамлакатдаги мутасадди вазирликлар учун муҳим стратегик йўналиш сифатида белгиланди.

Темир йўл транспорти соҳасида корхоналарнинг самарадорлигини ошириш, кўрсатиладиган хизматлар сифатини яхшилаш, бозор муносабатларини жорий этиш аутсорсинг каби бошқарувнинг замонавий усулларидадан фойдаланишни тақозо этади.

## **II. Методология**

Тадқиқотнинг методологик асосини умумий мантикий усуллар (таҳлил ва синтез, диалектик, умумлаштириш, аналогия, мавҳумдан конкретга ва конкретдан мавҳумга ўтиш), эмпирик тадқиқот усуллари (таққослаш, гуруҳларга тақсимлаш) ва алоҳида илмий усуллар (формал-юримик, тарихий, қиёсий-ҳуқуқий) ҳамда илмий билишнинг бошқа усулларидадан фойдаланилди.

## **III. Натижалар**

Темир йўл транспортида хизматлар кўрсатишда аутсорсингдан фойдаланишнинг ҳуқуқий табиати таҳлил қилинади. Натижада ушбу объект билан боғлиқ муносабатларни ҳуқуқий тартибга солувчи, қонунчиликни такомиллаштиришга ёрдам берадиган тақлифлар ишлаб чиқилади.

## **IV. Муҳокама қисми**

Юртимизда сўнги йилларда олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар темир йўл транспорти соҳасида ҳам ўз ифодасини топиб, темир йўл транспорти соҳасини ислоҳ қилиш, соғлом рақобат муҳитини яратиш, соҳага хусусий секторни кенг жалб қилиш, бизнес жараёнларини рақамлаштириш, бошқарувнинг замонавий усуллари жорий этиш ҳамда республиканинг транзит салоҳиятидан самарали фойдаланиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 10 октябрда “Ўзбекистон Республикаси темир йўл транспорти соҳасини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-329-сонли қарори қабул қилинди.

Мазкур қарор билан қуйидагилар: темир йўлда ташиш хизматлари бозорида рақобатни шакллантириш ва жозибador инвестиция муҳитини яратиш орқали ташиш жараёнларига хусусий инвестицияларни жалб қилиш; темир йўл соҳасини трансформация қилиш ва рақамлаштириш ишларини жадаллаштириш, хизматлар кўрсатиш жараёнининг узлуксизлиги, сифатлилиги, хавфсизлиги, барқарорлиги ва ишончилигини таъминлаш; темир йўл корхоналарининг молиявий ҳолатини мустаҳкамлаш, йўловчи ва юк ташишда таннарх ва харажатларни камайтириш, операциялар самарадорликни таъминлаш борасида ҳисобдорлик ва рағбатлантирувчи муҳитни яратиш; тадбиркорлик субъектлари учун темир йўл орқали юк ташиш хизматини кўрсатувчи вагон операторларини эркин танлаш ҳуқуқини таъминлаш; темир йўл хизматларини кўрсатишда иқтисодий ва молиявий салоҳияти юқори бўлган йўналиш ва соҳаларга мустақил ривожланиш, шу жумладан маҳаллий ва халқаро молия бозорларига чиқиш ҳамда давлат кўмагисиз кредит ресурсларини жалб қилиш учун имконият яратиш; темир йўл соҳасидаги давлат улуши мавжуд компанияларда корпоратив бошқарув тизимини тубдан яхшилаш, соҳага малакали хорижий менежерлар ва мутахассисларни жалб қилиш темир йўл транспорти соҳасини босқичма-босқич ислоҳ қилишнинг устувор вазифалари этиб белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексининг 358-моддасида оммавий шартнома тушунчасига таъриф берилган бўлиб, унга кўра ташкилот томонидан тузилган ҳамда унинг бундай ташкилот ўз фаолияти хусусиятига кўра ўзига мурожаат қиладиган ҳар бир шахсга нисбатан амалга ошириши шарт бўлган товарлар сотиш, ишлар бажариш ёки хизматлар кўрсатиш соҳасидаги вазифаларини (чакана савдо, умумий фойдаланишдаги транспортда йўловчи ташиш, алоқа хизмати, энергия билан таъминлаш, тиббий хизмат, меҳмонхона хизмати ва ш.к.) белгилаб қўядиган шартнома оммавий шартнома дейилади. Бундай ташкилот оммавий шартнома тузишда бир шахсни бошқа шахсга нисбатан афзал кўришга ҳақли эмас, қонунчиликда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

Шунингдек, ушбу моддада товарлар, ишлар ва хизматларнинг баҳоси, шунингдек оммавий шартноманинг бошқа шартлари ҳамма истеъмолчилар учун бир хил қилиб белгиланиши, қонунчиликда истеъмолчиларнинг айрим тоифалари учун имтиёзлар берилишига йўл қўйиладиган ҳоллар бундан мустаснолиги белгиланган.

Фуқаролик Кодексининг 359-моддасига кўра, шартномада унинг айрим шартлари тегишли турдаги шартномалар учун ишлаб чиқилган намунавий шартлар билан белгиланиши назарда тутилиши мумкин. Шартномада намунавий шартларга ҳавола қилинмаган ҳолларда бундай намунавий шартлар тарафларнинг муносабатларига иш муомаласи одатлари сифатида қўлланилади. Намунавий шартлар намунавий шартнома ёки ушбу шартларни ўз ичига олувчи бошқа ҳужжат шаклида ифодаланиши мумкин.

Темир йўл транспорти хизматлари кўрсатиш шартномаси ҳуқуқий табиатига кўра оммавий шартнома бўлиб, уни тузишда тарафлар эркиндирлар. Лекин, шартноманинг шартлари намунавий эканлиги боис тарафлар унинг шартларини танлашда эркин эмаслар. Истеъмолчида танлаш имконияти мавжуд эмас. У намунавий шаклдаги шартномани қабул қилиб хизматлардан фойдаланиш ёки қабул қилмаса хизматлардан фойдаланмаслиги мумкин. Бошқа вариант мавжуд эмас.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 13 апрелдаги 109-сонли “Ўзбекистон Республикаси темир йўл транспортида йўловчилар, багаж ва юк багаж ташиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси темир йўл транспортида йўловчилар, багаж ва юк багаж ташиш” қоидаларининг барча фойдаланувчиларга хизматлар кўрсатишда бир хил хизмат кўрсатиш ва тўловлар шартлари тақдим қилиниши, хизматлардан фойдаланувчи айрим тоифаларга кўрсатилган хизматлар учун қонун ҳужжатларига биноан тўловнинг бошқа шартлари берилиши мумкинлиги белгиланган.

Мазкур қоидаларга кўра, абонемент чиптаси вақтнинг белгиланган даври мобайнида шаҳарлараро қатновчи поездда йўловчини кўп марта ҳаракатланиши учун чипта эканлиги, йўловчига шахсан тегишли бўлган, унга поездда юриши тугагач зарур бўлган ва ташиш учун багаж вағонида чипта бўйича қабул қилинувчи буюмлар багаж ҳисобланиши, умумий фойдаланиладиган темир йўл транспортида йўловчи ташиш шартномаси тузилганлигини тасдиқловчи белгиланган намунадаги ташиш ҳужжати чипта эканлиги ўрнатилган.

Йўловчи билан ташувучи ўртасида ташиш шартномаси тузилганлиги темир йўлда ҳаракатланиш ҳужжати (чипта) билан, йўловчи багаж топширганлиги багаж квитанцияси билан тасдиқланади. Юк багаж ташиш

шартномаси тузилганлиги ва уни ташувчига топширилганлиги юк багаж квитанцияси билан тасдиқланади.

Сўнги йилларда ўз уйдан узоқда олий таълим муассасаларида таълим олаётган талабалар сонининг ошиши ва таътиллар бошланиши арафасида доимий яшаш манзилларига қайтишда енгил автомобиллар билан боғлиқ муаммоларнинг чуқурлашиши натижасида, ушбу муаммонинг ечими сифатида қоидаларнинг 16-бандига ўзгартириш киритилди. Унга кўра, йўловчи оқими ҳажми ва хусусиятига кўра вокзалларда болали йўловчилар, ҳарбий хизматчилар, ногиронлиги бўлган шахслар, уруш қатнашчилари ва уларга тенглаштирилган шахслар, йўлланма бўйича кетаётган йўловчилар (ёз мавсумида), таътил берилган даврида темир йўлчилар ва талабалар учун ихтисослаштирилган чипта кассалари ажратилиши белгиланди.

Чипта кассаларида чипта сотиб олиш бўйича устунлик ҳуқуқи 10 ёшгача (бу ёшга тўлган) болали йўловчиларга, шунингдек йўлланмалар чипта кассасига тақдим қилинган ҳолда йўлланмалар бўйича санатория-курорт даволанишига бораётган 10 ёшдан катта касал болаларни кузатиб бораётган йўловчиларга, Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ва Вазирлар Маҳкамасининг масъул ходимларига, Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати, Ўзбекистон Республикаси Президенти Давлат хавфсизлик хизмати ходимларига, Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги ҳузуридаги Транспорт назорати инспекцияси, прокуратура, Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Адлия вазирлиги хизматчиларига, хизмат кўрсатиш ҳудудлари доирасида ёки хизмат сафари гувоҳномаларида кўрсатилган станцияларгача хизмат ишлари юзасидан кечиктириб бўлмайдиган йўлга чиқишларда тиббиёт ходимларига, ветеринария ва санитария-эпидемиология хизмати ходимларига, тасдиқланган телеграф чақируви билан кетаётган шахсларга, авария ёки ёнғинни бартараф этиш учун сафарбар қилинган “Саноатгеоконтехназорат” давлат инспекцияси, “Ўздавнефтгазинспекция”, газ назорати, газ, кимё, нефть, нефтни қайта ишлаш ва нефть-кимё саноати, геология хизматчиларига тақдим қилинади.

Мазкур шахслар учун (10 ёшгача ва бу ёшга тўлган болали йўловчилардан, шунингдек йўлланмалар бўйича санатория-курорт даволанишига бораётган 10 ёшдан катта касал болаларни кузатиб бораётган йўловчилардан ташқари) бўш жойлар мавжуд бўлмаганда, уларнинг розилиги билан умумий вагонларга мавжуд жойлардан ортиқ чипталар берилади.

Навбатсиз чипта сотиб олиш ҳуқуқига Совет Иттифоқи Қаҳрамонлари ва уч даражадаги Шон-шуҳрат, “Ўзбекистон Қаҳрамони”, “Соғлом авлод учун” орденлари ва “Шуҳрат” медали билан тақдирланган шахслар, уруш оқибатида ногиронлиги бўлган шахслар ва уруш қатнашчилари ҳамда уларга

тенглаштирилган шахслар, Чернобиль АЭСда авария оқибатларини бартараф этиш ишларида қатнашган шахслар, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси сенаторлари ва депутатлари, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ходимлари, “Фахрий темирйўлчи” нишони билан тақдирланган шахслар эга эканлиги белгиланган.

### **V. Хулоса**

Юқорида келтирилган вагонларни қатновга қайта тайёрлаш хизматларини “Ўзбекистон темир йўллари” АЖнинг иш ҳажмини камайтириш, бошқарув тизими ва жараёни назорат қилиш каби юкламалардан озод қилиш мақсадида аутсорсинг асосида бажариш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Шунингдек, темир йўл транспортида йўловчиларга кўрсатиладиган бир қатор хизматлар, жумладан, йўловчиларни озиқ-овқат, ичимликлар билан таъминлаш, чипта сотиш ва бошқа бир қатор вазифаларни бажаришни аутсорсинг асосида амалга ошириш иқтисодий жиҳатдан ўз самарадорлигини кўрсатган бўлар эди.

### **VI. Фойдаланилган адабиётлар**

1. Президент денгиз портларига чиқиш имкониятини берадиган темир йўл қурилиши ҳақида гаприди. [Электрон манбаа]: <https://yuz.uz/news/prezident-dengiz-portlariga-chiqish-imkoniyatini-beradigan-temir-yol-qurilishi-haqida-gapirdi>;
2. “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси”. [Электрон манбаа]: [https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144);
3. “Темир йўл транспортида йўловчиларга хизмат кўрсатиш жараёнларини такомиллаштириш”, Бутунов Дилмурод Баҳодирович, Эргашев Баҳромжон Олимжон ўғли, Бахритдинов Умиджон Урманович, <https://cyberleninka.ru/article/n/temir-y-l-transportida-y-lovchilarga-hizmat-k-rsatish-zharayonlarini-takomillashtirish>;
4. Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 15 апрелдаги “Темир йўл транспорти тўғрисида”ги Қонунининг 11-моддаси, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - <https://lex.uz/acts/13081>

**FALSAFA TARIXI FAN SIFATIDA**

*Toshboboyeva Munavvar Jalilovna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika*

*instituti o'qituvchisi*

*Abdumalikova Iroda Olim qizi*

*Murodullayeva Maxfuza Shamsiddin qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika*

*instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada falsafa tarixi o'zida falsafiy fikr taraqqiyotini aks ettiradi. U falsafaning dunyoqarash shakli sifatida qanday paydo bo'lgani, uning muammolari, asosiy tushunchalari va prinsiplarining qanday shakllanganligi va mazmunan boyib borgani, qanday yo'nalishlarda taraqqiy etgani, bu taraqqiyot tendensiyalari nimalarda ifodalanishini tushuntiradi. Maqolada falsafa tarixining alohida fan ekanligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** falsafa, falsafa tarixi, falsafa predmeti, gilozoizm, animatism, animism, antropomorfizm, urug'chilik sotsiomorfizmi.

**KIRISH**

Falsafa va falsafa tarixining o'zaro munosabati tarixiylik va mantiqiylikning birligi prinsipi asosida olib qaraladigan bo'lsa, bitta fanning ikki qirrasiga o'xshaydi: kelib chiqish va rivojlanish tarixi nuqtayi nazaridan olib o'rganilsa – u falsafa tarixi, taraqqiyoti davomida shakllangan fundamental muammolar, tushunchalar, g'oyalar, prinsiplarning sintezlangan, umumlashtirilgan, zamonaviy ruhda talqin etilgan, mantiqiy tizimga solib bayon qilingani esa nazariy sistema yoki falsafa nazariyasidir

Lekin bu holat, ayni paytda, falsafa tarixining predmeti, asosiy masalalarini aniqlashni, uni umumnazariy falsafa predmeti, muammolari, prinsiplaridan “chegaralashni” taqozo etadi. Buning uchun tafakkur taraqqiyoti, unga xos bo'lgan xususiyatlar, qonuniyatlarga, dunyoqarashning shakllanishi va evolyutsiyasi tendensiyalariga murojaat qilish lozim. Zero, falsafa predmeti, uning muammolari, fundamental tushunchalari va prinsiplari bilish, tafakkur taraqqiyoti davomida shakllana borib, turli tarixiy davrlarda jamiyat oldida turgan va hal qilinishi lozim vazifalar bilan bog'liq ravishda o'zgarishlarga uchragan. Aynan mana shu jarayon falsafa tarixini hosil qiladi, uning predmeti va muammolarini “yaratadi”.

Ijtimoiy hayot, mafkuraviy muhit bilan taqozo etiladigan falsafiy fikrlar rivoji bilishga xos bo'lgan qonuniyatlarga bo'ysunadi. Uni ifodalovchi mantiqiy vositalardan biri abstraklikdan konkretlikka qarab ko'tarilish prinsipidan iborat. Falsafiy dunyoqarashdan avval mifologiya va old falsafaning paydo bo'lishi, ularning falsafiy muammolarning shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri buni tasdiqlaydi.

Bilish tarixi shundan guvohlik beradiki, ibtidoiy ongga xos bo'lgan subyekt va obyektning keskin farqlamaslik, masalan, olamni obrazli idrok etish, uni jonlantirishga (gilozoizm), ruhlantirishga (animatizm), dunyo binosining qismlarini jonli deb hisoblashga moyillik (animizm), shuningdek, tabiat bodisalarini insonga o'xshatish (antropomorfizm), tabiiy jarayonlar munosabatini urug'chilik munosabatlariga qiyos qilish (urug'chilik sotsiomorfizmi), mantiqiy fikrlashning deyarli yo'qligi dunyoqarashning, shu jumladan, falsafiy dunyoqarashning boshlanish nuqtasi bo'lgan inson – olam munosabati masalasining qo'yilishiga imkon bermagan. Bunda ibtidoiy ong shaklini sotsioantropomorfik dunyoqarash deb hisoblash va uning asosiy xususiyatini mantiqiy fikr yuritishda deb emas, balki emotsional-assotsiativ xayol surishda deb bilish ustuvordir [2, 7-11]. Mazkur xususiyatlar muayyan darajada mifologiyada va ilk diniy tasavvurlarda o'z ifodasini topadi. Lekin, ayni paytda, ularda ibtidoiy ajdodimizning olamni va o'z-o'zini bilishga bo'lgan intilishi ham kuzatiladi. Uni hissiyot bilan tafakkur o'rtasidagi bilish hodisasi deb tavsiflash mumkin.

Mifologiyaning mohiyati va bilishda tutgan o'rniga nisbatan turli qarashlar mavjud. Xususan, ba'zi tadqiqodchilar mifologiyani borliqni tushuntirish usuli deb hisoblasa, boshqalari uni ibtidoiy ajdodlarimizning olamni va o'z-o'zini bilishga bo'lgan intilishi deb biladilar. Bizningcha, keyingi qarash haqiqatga yaqinroq bo'lsa kerak. Aks holda mifologiyani dunyoqarash tipi sifatida tavsiflab bo'lmaydi. Mavjud adabiyotlarda, ayniqsa, o'quv adabiyotlarida uni dunyoqarash shakli deb hisoblashadi.

Lekin, shuni ham e'tiborga olish kerakki, bilish faqat sof subyektiv tajriba emas, balki obyektivlikka tayanadigan, haqiqatga intilish, uni egallashni nazarda tutadigan jarayondir. Shunday ekan, borliq qonuniyatlarini bilish, ulardan amaliyotda, kundalik hayotda foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ertami-kechmi bilish faoliyatini miflar, afsonalar to'qish jarayoni doirasidan chiqishga, uning sferasini kengaytirishga olib keladi. Mifdan fanga, falsafaga, ya'ni, dunyoqarashning boshqa shakllariga o'tish sodir bo'ladi. Bu jarayonda muhim oraliq bo'g'in vazifasini old falsafa va parafalsafa bajaradi.

Old falsafa – rivojlangan mifologiya va ilmiy bilimlar kurtaklari yig'indisi bo'lib, falsafaning paydo bo'lishiga shart-sharoit yaratgan. U "shakllanayotgan falsafa o'zagini, parafalsafa esa – qobig'ini tashkil etadi. Agar mazkur o'zak, yadro yo'q bo'lsa, parafalsafa old falsafa shaklida, ichida yadro paydo bo'ladigan qobiq ko'rinishida bo'ladi [3, 21]".

## XULOSA

Falsafa tarixini o'rganish to'g'risidagi amerikalik faylasuf F.Koplston mulohazalari ham e'tiborga loyiqdir [4, 2-9]. Uning ta'kidlashicha, o'tmishdagi turli falsafiy sistemalar - bu faqat antikvar relikviyalar xolos, butkul falsafa tarixi "ma'naviy jihatdan rad etilgan va o'lik sistemalar, har bir keyingi sistema avvalgisini yo'q qilgan va ko'mib tashlagan", deb e'tiroz bildirishlari mumkin. Gegel fikricha, falsafa

tarixi o'tmishga murojaat qilar ekan, yaxlit falsafiy jarayon doirasidan chetga cbiqmaydi. Falsafa tarixini o'rganishga kirishar ekanmiz, oldimizda falsafiy fikr evolyutsiyasini bayon etish, "uning qanday vujudga kelgani va qanday qilib o'zini yaratganini" ko'rsatish vazifasi turadi. Mana shu ma'noda falsafa tarixi "falsafaning o'z-o'zini yaratish tarixi" dan iborat va faqat o'z ildizlarini topa bilsagina, mavjud bo'la oladi va borlig'ini namoyon qila oladi. Uningcha, turli falsafiy sistemalar falsafa binosini quruvchi qismlardir. Shu sababli, falsafa tarixi ichida falsafaning o'zi bilan ish ko'ramiz. Buyuk nemis faylasufi masalaning yana boshqa bir tomoniga e'tiborini qaratadi: falsafa tarixi – bu bilish tarixi va demak, insonning o'z-o'zini anglash tarixidir; u inson tabiati, mohiyatiga ko'ra, begona bo'lgan narsalarning emas, balki uning o'zining shakllanishi tarixidir. Boshqacha aytganda, falsafaning tarixiy taraqqiyoti insonning, uning ma'naviy dunyosining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixidir.

Mazkur holat falsafaning dunyoqarash shakli, inson ma'naviy hayotining muhim tarkibiy elementi sifatida mifologiya ta'sirida hamda ilmiy tasavvurlar, masalan, matematika, astronomiya, fizika, tibbiyot va shu kabilarga oid bilimlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanganidan dalolat beradi. Falsafiy fikrning keyingi rivoji, uning tarixini esa inson dunyoqarashining kengaya borishi, mafkuraning rivoji, ma'naviyatning yuksalishi ko'rsatkichi bo'lgan, deyishimiz mumkin.

#### REFERENCES

1. Ойчерман Т.И. Философия как история философии. – М.: Владос, 2006.
2. Лосев А.Н. История античной философии. – М.: Мысль, 1989.
3. Чанышен А.Н. Курс лекций по древней философии. – М.: Высшая школа, 1981.
4. Copleston F. History of philosophy. Vol. 1. – New York-London-Toronto-Sydney Auckland, 2003.
5. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. "Academic research in educational sciences", 2(9), 886-889. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889>
6. 886-889
7. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.
8. Салойдинов, С. К. (2021). Образовательные кредиты в Узбекистане. "Экономика и социум", 12(91), 470-472.
9. Салойдинов, С. К. (2021). Спрос на рынке дифференцированных продуктов. "Экономика и социум", 12(91), 473-476.
10. Салойдинов, С. К. (2022). С паровой турбиной 471 МВт на Талимарджанской ТЭЦ расчет электрических режимов при максимальной зимней нагрузке. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies

(CARJIS)”, Special issue, 116-121.

11. Сардоржон Кодиржон Үгли Салойдинов. (2022). Инновационное решение для получения биогаза. “Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)”, 2(3), 280-285. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-280-285>.

**TARBIYANING UMUMIY METODLARI VA O'QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH. AQLIY, IQTISODIY VA EKOLOGIK TARBIYA**

*Xudoyqulov Xolboy Alisher o`g`li  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Jismoniy madaniyat  
yo`nalishi 2-bosqich JM-14-23 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Tarbiyaning umumiy metodlari va o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Aqliy, iqtisodiy va ekologik tarbiyaning ahamiyati va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqola didaktik usullarni qo'llash va o'quvchilarda atributlarni shakllantirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiyaviy metodlar, ilmiy dunyoqarash, aqliy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, ta'lim, didaktika.

**KIRISH:**

Tarbiyaning maqsadi - shaxsni rivojlantirish va uning jamiyatga mos ravishda o'sishini ta'minlashdir. Bunda aqliy, iqtisodiy va ekologik tarbiya alohida ahamiyatga ega. Har bir usul o'quvchilarni bir tomondan bilim olishga, ikkinchi tomondan esa ularning atrof-muhit va iqtisodiyot bilan bog'liq masalalarda to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda tarbiyaviy metodlarning o'rni beqiyosdir.

**Aqliy tarbiya**

Aqliy tarbiya o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon matematik, mantiqiy va analitik fikrlashni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun turli didaktik usullar va o'yinlar qo'llanilishi kerak.

**Iqtisodiy tarbiya**

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarga moliyaviy savodxonlikni oshirish va iqtisodiy tushunchalarni o'rgatishga qaratilgan. Talabalar iqtisodiy jarayonlar, risklarni baholash va resurslarni samarali boshqarish haqida bilimga ega bo'lishlari kerak. Bu esa jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhimdir.

**Ekologik tarbiya**

Ekologik tarbiya ekologiya va tabiatni muhofaza qilish masalalariga doir bilimlarni o'rgatadi. O'quvchilar tabiatga befarq bo'lmaslik va ekologik muammolarni yechishda faol ishtirok etishlari uchun tarbiyalanadilar. Bu zaruriy bilimlarni olish orqali, ular jamiyatda ekologik ongni shakllantirishda muhim rol o'ynaydilar.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’siretish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir. O‘z-o‘zini baholash o‘quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga chetdan turib xolisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi. Izohlash – tarbiyalanuvchiga hissiy-og‘zaki ta’sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo‘naltirilganligidir. Ushbu metodni qo‘llash sinfning o‘quvchilarining umumiy yoki jamoa a‘zolarining shaxsiy xususiyatlarini bilishga asoslanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ish olib borishda izohlashning elementar usul va vositalari qo‘llaniladi: «Shunday harakat qilish kerak», «Hamma shunday qiladi». O‘smirlar bilan ishlaganda ma’naviy-axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ahamiyati va ma’nosini izohlash zarur. Izohlash quyidagi holatlarni yuzaga keltirish uchun qo‘llaniladi: yangi ma’naviy-axloqiy sifatlar yoki xulq ko‘nikmalarini tarkib toptirish va mustahkamlash; tarbiyalanuvchilarning sodir etilgan muayyan hodisa (masalan, sinf o‘quvchilari ommaviy ravishda darsga kelmaganlari)ga to‘g‘ri, ongli munosabatni hosil qilish.

Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo‘lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir. Ekologik madaniyat o‘quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

O‘quvchilarning ta‘lim jarayonida o‘zlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to‘g‘risidagi tasavvurini boyitish. O‘quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to‘g‘risidagi e‘tiqodni shakllantirish. O‘quvchilarda ekologik faoliyat ko‘nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish. Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan ekologik tarbiyaning suhbat, davra suhbat, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hashar, ko‘kalamzorlashtirish) kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, rag‘batlantirish va jazolash kabi metodlar yordamida tashkil etish o‘quvchilarda ekologik madaniyatni qaror topishini ta‘minlaydi. O‘quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan subyektlarning shaxsiy namunalari, o‘quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, Internet) materiallari va ularning g‘oyalari

o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi. Nazorat savollari:

1. Dunyoqarash nima? 2. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi qanday ma'noni anglatadi? 3. Sharq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shakllantirish borasida qarashlardan namunalar keltiring.

### **XULOSA:**

Tarbiya har bir shaxs tug'ilgan paytidan boshlab olishi kerak va bu hayoti davomida juda katta rol o'ynaydi har tomonlama shu bois. Har bir shaxs oliy talim yani maktablardagi tarbiyadan to'laqonli olishi lozim va bu tarbiya o'quvchilarni hayotga bo'lgan dunyo qarashini ancha to'g'irlyadi. Tarbiyani birinchi o'rinda ota onadan olish kerak. Tarbiyaning umumiy metodlari

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mavlonov, T. (2017). Pedagogika va tarbiya metodlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasining O'quv Adabiyotlari Noshirlik Uy.
2. Saidov, M. (2015). Pedagogikada metodlar va usullar. Toshkent: O'qituvchi.
3. Xasanov, Sh. (2018). Ta'lim va tarbiya metodlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi.
4. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish
5. Muhammedov, A. (2012). Ilmiy dunyoqarash va uning ta'limdagi o'rni. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Jumayev, Z. (2013). Ilmiy va falsafiy dunyoqarashni shakllantirish. Toshkent: Akademiya.
7. Sodiqov, S. (2014). Ilmiy tafakkur va yoshlarning dunyoqarashi. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
8. 3. Aqliy tarbiya
9. Qodirov, F. (2017). Aqliy rivojlanish va tarbiya. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq.
10. Xusanov, A. (2016). Aqliy tarbiya metodlari va amaliyoti. Toshkent: Oliy ta'lim.
11. Samiyev, B. (2018). Aqliy rivojlanishning asosiy prinsiplari. Toshkent: Fan va Ta'lim.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR E'TIBORINING O'ZIGA XOSLIGI

*Abduhalimova Farxunda Suxrobovna*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi [farxundaabduhalimova@gmail.com](mailto:farxundaabduhalimova@gmail.com)*

88 244 01 09

*Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya*

*kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

*[ulugbekshomurotov986@gmail.com](mailto:ulugbekshomurotov986@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning e'tibori, uning mohiyati va uni rivojlantirishning pedagogik hamda psixologik omillarini o'rganishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** iste'dodli bolalar, qobiliyatlar, psixologik o'qitish, o'yinlar, ahamiyat, diqqat, pedagogik ko'nikmalar.

### **Kirish**

Bolalarning e'tibori faqatgina bolalar bog'chasining sharoitlariga emas, balki oilaviy muhitga ham bog'liq. Shu sababli, bolalarning e'tibori bir xil darajada rivojlana olmaydi. Ba'zi bolalar oilada yetarlicha nazorat qilinmasa yoki aksincha, ortiqcha tartib va intizom ostida bo'lsa, ularda e'tiborning rivojlanishi cheklanishi mumkin. Misol uchun, ayrim bolalar bir joyda tinch o'tirishni bilmaydi yoki ularga topshiriq berilganda, so'zga quloq solmaydi. Bunday bolalar e'tiborini barqaror ushlab turish juda qiyin bo'ladi, chunki ular o'zlarini boshqarish qobiliyatiga ega emaslar. E'tibor qobiliyatining rivojlanishi ta'lim jarayonining muhim qismidir. O'qituvchilar bunday bolalar bilan individual yondashuvda ishlashlari kerak, masalan, ularga mas'uliyatli topshiriqlar berish, qiziqarli mashqlar orqali e'tibor qobiliyatini mustahkamlash lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar e'tibori asosan nutq bilan bog'liq bo'lib, u o'quvchilarnikiga qaraganda ancha tor. Masalan, maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalari bir vaqtning o'zida faqat bitta yoki ikkita narsaga diqqatni jamlay oladi. Ular ikki narsaga bir vaqtning o'zida e'tibor bera olmaydi. Misol uchun, uch yoshli bola bir piyola suv olib kelish topshirig'ini olganda, suvni to'kib yuborishi yoki piyolani tushirib yuborishi mumkin. Bu uning e'tiborsizligi emas, balki e'tiborini bir vaqtning o'zida ikkiga bo'lish qiyinligidadir. Bolalarning e'tiborini kengaytirish uchun ularga turli faoliyatlar, masalan, ekskursiyalar, suratli hikoyalar orqali yordam berish zarur.

Bolalar bog'chasida diqqatning ixtiyoriy shakli didaktik o'yinlar orqali rivojlantiriladi. Bu maktab ta'limi uchun muhim bo'lgan xususiyatlarning asosini tashkil qiladi. Shuningdek, bolalar bog'chasida ta'lim jarayonida e'tibor ixtiyoriy ravishda rivojlanadi. Bunday e'tibor asosan didaktik o'yinlar va mehnat faoliyatida shakllanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida e'tiborni rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Olim I.P. Pavlov diqqatni «nutqiy refleks» deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, diqqat yangi va kutilmagan stimullar orqali shakllanadi. Diqqatning fiziologik asosi bosh miya qobig'idagi qo'zg'alish jarayonlari bilan bog'liq. Shu asosda I.P. Pavlov e'tiborni «miya qobig'idagi optimal qo'zg'alish manbai» sifatida izohlagan.

### **Xulosa**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning e'tibori rivojlanishi ularning keyingi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Bu davrda bolalarning e'tiborini ixtiyoriy shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki ular hali to'liq boshqariluvchi e'tibor shakliga ega emas. E'tiborning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim omillar – oilaviy muhit, pedagogik yondashuv va o'yin faoliyatlaridir. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning e'tibor qobiliyatini kengaytirish uchun didaktik o'yinlar va qiziqarli mashg'ulotlar asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, o'qituvchi va ota-onalar e'tibor qobiliyatini rivojlantirishda birgalikda ish olib borishlari muhim. E'tiborni rivojlantirish orqali bolalarda mas'uliyat hissi, diqqatni bir joyga jamlash qobiliyati va mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishiga va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga zamin yaratadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida bu masalaga alohida ahamiyat qaratish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Gamezo M.V., Domashenko I.A. Psixologiya atlas. M.: «Prosveshchenie», 1986.
2. Gipenreyter Yu.B. Umumiy psixologiyaga kirish. M.: CheRo, 1997.
3. James V. Psixologiya. M., 1991.
4. Karimova V. Psixologiya. Toshkent, 2002.
5. Maklakov A.G. Umumiy psixologiya. M.: «Piter», 2003.
6. Nemov R.S. Psixologiya, 1-jild. M., 1999.
7. Umumiy psixologiya: Ma'ruza kursi. Tuzuvchi: E.I. Rogov. M.: Vlados, 1995.
8. Umumiy psixologiya. Toshkent, 1992.

## **BOLA PSIXOLOGIIYASI BO'YICHA ILMIY TARAFDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR**

*Toshmahmatov Bahodir*

*DTPI-pedagogika Fakultetini Boshlang'ich ta'lim yo'nalishining 108-guruh 1-kurs talabasi*

*Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya  
kafedrasida o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

[ulugbekshomurotov986@gmail.com](mailto:ulugbekshomurotov986@gmail.com)

**Annotatsiya.** Bolani hayot tarzi, oilada qanday yashashi, oiladagi muhit ota ona munosabati bola tarbiyasi bolaning yoshlik va o'smirlilik paytidagi psixologik jarayonlar kabi jarayonlar doimiy ravishda ko'pchilikni qiziqtirib kelgan. Ushbu maqolada bola psixologiyasi uchun ilmiy jihatdan olib borilgan tadqiqotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, o'smirlilik, logopediya, rinolaliya, longityut, nutq, ped, ko'ndalang kesma, longityud.

### **KIRISH**

Bolalar psixologiyasi - psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi uni harakatlantiruvchi kuchlar hamda qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko'pincha yoshlar psixologiyasi deb ham ataydilar. TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI Bolalar psixologiyasi bolalarda psixologik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va boshqa) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixologik xususiyatlar qaror topishini, xilma xil faoliyatning (turli xil o'yinlar, o'qish, mehnat qilish) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan umumiy tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bor desak adashmagan bo'lamiz. Sababi barcha bolalar bir xil fikrlamaydi va bir xil xarakterlanmaydi ular turlicha psixologik hildatda bo'ladilar. Faqatgina birgina holdagida barcha bolalar bir biriga o'xshashadi ya'ni o'yinqaroligida hamda beg'uborligida. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganishda ko'ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o'tkazib o'rganiladi. Shuningdek ancha vaqtdan beri bizga ma'lum bo'lgan usullar orqali ham bolalarni psixologik tekshirish mumkin bo'ladi. Quyida esa yangicha bola shaxsi yosh xususiyatlarini o'rganish usullarini aytib o'tsam. Birinchi holatda birgina psixologik jarayonning o'zi bir vaqtda turli yosh

guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holat ( longityud ) da esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan ) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ularni psixologiyasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvatlash, e'tiborlarni his qildirish, mumkin bo'an va bo'lmagan holatlar o'rgatiladi.

Bola dunyoni atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolani har bir harakat - bu ko'zgdagi sizning aksingiz bo'ladilar. Klassik bixeviorizmdagi rivojlanish muammosi zamonaviy Amerika rivojlanish psixologiyasining eng kuchli tarmog'i bo'lgan ijtimoiy ta'lim nazariyasida qayta ko'rib chiqiladi. Kognitiv rivojlanish bo'yicha tadqiqotlar ham o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda - epistemik mavzuni o'rganishdan ma'lum bir bolani uning hayotining real sharoitida o'rganishga o'tish mavjud. G'arb psixologiyasining barcha bu ajoyib yutuqlari fonida, L. S. Vygotskiy bolalar psixologiyasida chinakam inqilobiy inqilobni amalga oshirdi. U bolaning aqliy rivojlanishining borishi, shartlari, manbai, shakli, o'ziga xosligi, harakatlantiruvchi kuchlari haqida yangi tushunchani taklif qildi; u bolaning rivojlanish bosqichlarini va ular orasidagi o'tishlarni tasvirlab berdi, bolaning aqliy rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini aniqladi va shakllantirdi. Bugun har kim bilimli odam Bolalik nima degan savolga, u bolalik rivojlangan rivojlanish, o'zgarish va o'rganish davri deb javob beradi. Ammo bu paradokslar va qaramaqarshiliklar davri ekanligini, rivojlanish jarayonini ularsiz tasavvur etib bo'lmasligini faqat olimlar tushunadi. V. Stern, J. Piaget, I. A. Sokolyanskiy va boshqalar bola rivojlanishining paradokslari haqida yozganlar. D. B. Elkoninning aytishicha, bolalar psixologiyasidagi paradokslar rivojlanish sirlari bo'lib, olimlar hali ochilmagan. D.B. Elkonin Moskva universitetida o'z ma'ruzalarini doimo bola rivojlanishining ikkita asosiy paradokslarini tavsiflash bilan boshladi, ular orasida bola rivojlanishining zarurati bor. tarixiy yondashuv bolalikni tushunish uchun. Keling, ularni ko'rib chiqaylik Tug'ilgan odamga hayotni saqlab qolish uchun faqat eng elementar mexanizmlar berilgan. Jismoniy tuzilishi, asab tizimining tashkil etilishi, faoliyat turlari va uni tartibga solish usullari jihatidan inson tabiatdagi eng mukammal mavjudotdir. Bolalik - bu yangi tug'ilgan kundan boshlab to'liq ijtimoiy va shuning uchun psixologik etuklik davri; bu davrda bola insoniyat jamiyatining to'la huquqli a'zosiga aylanadi. Bundan tashqari, ibtidoiy jamiyatdagi bolalikning davomiyligi o'rta asrlardagi yoki bizning kunlarimizdagi bolalik davriga teng emas. Insoniyatning bolalik bosqichlari tarix mahsuli bo'lib, ular ming yillar avval bo'lgani kabi o'zgarishi mumkin. Shuning uchun bolaning bolaligi va uning shakllanishi qonuniyatlarini insoniyat jamiyati taraqqiyoti va uning rivojlanishini

belgilaydigan qonuniyatlardan tashqarida o'rganish mumkin emas. Bolalikning davomiyligi jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati darajasiga to'g'ridan-to'g'ri mutanosibdir. Ma'lumki, bilish va dialektika nazariyasi alohida fanlar tarixi, bolaning psixik rivojlanish tarixi, yosh hayvonlar va til tarixidan shakllanishi kerak. Ayniqsa e'tiborni qaratish hikoyalar bolaning aqliy rivojlanishi, uni ontogenezdagi bolaning rivojlanishidan ham, turli xil zamonaviy madaniyatlarda bolalarning notekis rivojlanishidan farqlash kerak.

Bolalik tarixi muammosi zamonaviy bolalar psixologiyasidagi eng qiyin muammolardan biridir, chunki bu sohada na kuzatish, na tajriba o'tkazish mumkin emas. Bolalarga oid madaniy yodgorliklar qashshoq ekanligini etnograflar yaxshi bilishadi. Arxeologik qazishmalarda o'yinchoqlar topilganida ham, unchalik muhim bo'lmagan holatlarda ham, bular odatda qabrlarga qo'yilgan diniy ob'ektlar bo'lib, ular keyingi hayotda egasiga xizmat qilishlari uchun. Odamlar va hayvonlarning miniatyurasvirlari ham jodugarlik va sehrgarlik maqsadlarida ishlatilgan. Aytish mumkinki, eksperimental faktlardan oldin nazariya mavjud edi. Nazariy jihatdan, bolalik davrlarining tarixiy kelib chiqishi masalasi P. P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, D. B. Elkonin asarlarida ishlab chiqilgan. Bolaning aqliy rivojlanishining borishi, S. Vygotskiy fikricha, tabiatning abadiy qonunlariga, organizmning kamolot qonunlariga bo'ysunmaydi. Bolalarivojlanishining rivojlanishi sinfiy jamiyat, deb hisobladi u, "juda aniq sinfiy ma'noga ega". Shuning uchun u abadiy bolalik emas, faqat tarixiy bolalik borligini ta'kidlaydi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bolalar psixologiyasini o'rganish orqali ularni kelgusi davrda qanday bo'lishi qanday harakatlar qilishini oldindan ko'ra bilish desak mubolag'a bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini psixologiyasini yaxshi qilib rivojlantirishni bog'cha davridayoq shakllantirib boorish kerak bo'ladi. Ungacha esa uyda. Aytishadiku qush uyasida ko'rganini qiladi deb. Shunday ekan bolalarni psixologik jihatdan sog'lom baquvvat qilish eng avvalo uydan boshlanadi.

### **REFERENCES**

1. L.F.Obuxova. Bolalar (rivojlanish) psixologiyasi kitobi. Moskva 1996-y.
2. OBUXOVA L.F., psixologiya fanlari doktori — Источник: <https://muegn.ru/uz/th/obuhovadetskaya-vozrastnaya-psihologiya-l-fobuhovadetskaya.html> © muegn.ru.
3. Yoshga bog'liq psixologiya. SPO M. uchun darslik: Yurayt 2016
4. Yoshga bog'liq psixologiya. O'quv qo'llanma M.: Rossiya Pedagogika Jamiyati. - 1999 -442 s
5. Rivojlanish psixologiyasi: Universitetlar uchun darslik. M.: Oliy ma'lumot; MGPPU, 2006 .. - 460 p. - (Fanlar asoslari).

6. Bolalar (rivojlanish) psixologiyasi M .: Rossiya pedagogika agentligi, 1996, - 374 p.
7. Jan Piaget: nazariya, tajribalar, munozaralar M .: Gardariki 2001, 624 pp., Kasal bilan. Qattiq qopqoq. — Источник: <https://muegn.ru/uz/th/obuhova-detskayavozrastnayapsihologiya-l-f-obuhova-detskaya.html> © muegn.ru
8. [www.vikipediya.uz](http://www.vikipediya.uz) internet sayti.

## O'QUVCHILARNING DIQQATINI RIVOJLANTIRISH

*Ismoilova Marjona Abdushukurovna  
Gulboyev Muhammadi To'lqinovich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti*

*Pedagogika fakulteti 1\_kurs talabasi*

+998-88-536-56-65

*Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya*

*kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

[ulugbekshomurotov986@gmail.com](mailto:ulugbekshomurotov986@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diqqat, uning turlari va o'quvchilarda diqqatni rivojlantirish usullari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Diqqat va uning turlari turli ilmiy psixologiya olimlari tomonidan tahlil qilingan bo'lib, olingan xulosalar boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ta'lim jarayonida amaliy yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** konsentratsiya, faoliyat, bilish, jarayon, e'tibor, xususiyat, rivojlanish, retseptor.

**Аннотация:** В данной статье собраны общие сведения о внимании, его видах и методах развития внимания у учащихся. Внимание и его виды анализировались различными учеными-психологами, а сделанные выводы окажут практическую помощь учителям начальных классов в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** совокупность, деятельность, познание, процесс, характеристика, развитие, рецептор.

**Abstract:** This article contains general information about attention, its types and methods of developing attention in students. Attention and its types have been analyzed by various scientific scientists of psychology, and the conclusions drawn will provide practical help for primary school teachers in the educational process.

**Key words:** concentration, activity, cognition, process, characteristic, development, receptor. Diqqat va uning kundalik hayotdagi ahamiyati

Inson kundalik hayotida amalga oshiradigan barcha ishlar diqqatning obyektidir. Diqqatni to'g'ri taqsimlamagan inson hech bir ishni talab darajasida, sifatli va mukammal bajara olmaydi. Inson dars yoki ish jarayonida o'z diqqatini to'g'ri taqsimlash orqali ma'lum bir ma'lumotni egallashi mumkin. Agar inson o'ziga yoqimli yoki muhim narsani to'liq va to'g'ri idrok etmoqchi bo'lsa, avvalo diqqatini o'sha narsaga qaratishi lozim. Diqqat inson miyasi uchun tashqi dunyo predmetlarini aniq va

to'liq aks ettirish imkonini beradi. Psixologiyada diqqat insonning obyekt bilan munosabatini ifodalaydi. Bu faqat ruhiy va psixologik xususiyatlarni emas, balki insonning ma'lum bir obyektidan foyda ko'rish yoki unga qiziqishini ham aks ettiradi. Psixologik adabiyotlarda diqqatning quyidagi turlari farqlanadi: ixtiyoriy diqqat, beixtiyoriy diqqat, va keyingi ixtiyoriy diqqat.

**Ixtiyoriy diqqat:** Oldindan qo'yilgan maqsad bilan shakllanadigan diqqat ixtiyoriy diqqat deb ataladi. Ixtiyoriy diqqat miyaning bosh qavatida ongli va rag'batlantiruvchi jarayonlar orqali yuzaga keladi. Ko'p hollarda bu diqqat tashqi omillarni talab qilmaydi. Masalan, kitob o'qiyotgan o'quvchi bilim olish maqsadida o'z diqqatini ongli ravishda o'sha ishga yo'naltiradi.

**Beixtiyoriy diqqat:** Oldindan maqsadsiz yuzaga keladigan diqqat beixtiyoriy diqqat deb ataladi. Masalan, dars paytida barcha talabalar e'tiborini darsga qaratib o'tirgan bo'lsa, kutilmaganda sinf eshigi ochilsa, ular beixtiyor o'sha tomonga qaraydilar. Diqqat insonning muvaffaqiyatli faoliyatida katta rol o'ynaydi va uning samaradorligini oshiradi. Diqqatning to'g'ri taqsimlanishi o'quv jarayonlari va kasbiy faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Diqqatning rivoji:** Ilmiy adabiyotlarga ko'ra, psixik faoliyatning ma'lum bir predmet va hodisalarga yo'naltirilganligi diqqat deb ataladi. Inson tabiatni, ya'ni o'z atrof-muhitini kuzatar ekan, tabiiy ravishda psixik jihatdan biror narsaga diqqatni qaratadi. Diqqat aqliy va hissiy jarayonlarni o'z ichiga oladi va u obyektini o'rganish hamda unga e'tibor qaratishda yordam beradi. Psixologiya fanida diqqatning xususiyatlari bolalar va kattalarda ta'lim jarayonini yaxshilash hamda ma'lumotni idrok etishda qo'llaniladi.

Biz kundalik hayotimizda diqqatni turli vaziyatlarda kuzatamiz. Masalan, maktabda, universitetda, mehmonlikda, ko'chada va boshqa joylarda. Maktab yoki universitetda bo'lganimizda, kutilmaganda odamlarning so'zlari diqqatimizni tortadi va biz diqqatimizni o'sha tomon yo'naltirishga majbur bo'lamiz. Diqqat – bu insonning kundalik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ruhiy holatdir. U har bir inson va turli kasbiy faoliyat turlarida zaruriy omil hisoblanadi. Diqqat inson ongining muayyan bir jihati bo'lib, bu faqat psixik faoliyatning biror narsaga qaratilganida namoyon bo'ladi. Diqqatni yo'naltirish inson psixik faoliyatini tanlash orqali amalga oshadi. Diqqat – bu ruhiy holatning kuchli yo'nalishi bo'lib, voqea, hodisalar va predmetlarni idrok qilish jarayonida zarur narsalarni ong yordamida ajratib olishga va keraksiz narsalarni ong doirasidan chetlab qo'yishga imkon beradi. Diqqatning o'ziga xos xususiyati – bu uning tez o'tuvchanligi va ichki kurashlar bilan bog'liqligidir. Bu diqqatni psixik holatning o'ziga xos qirralaridan biriga aylantiradi.

**Beixtiyoriy va keyingi ixtiyoriy diqqat haqida:** Beixtiyoriy diqqat odamda maqsad qo'yilmagan holda, vaziyat ta'sirida yuzaga keladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida beixtiyoriy diqqat yaxshi rivojlangan bo'lib, tajribali o'qituvchi buni

dars jarayonini tashkil qilishda samarali foydalanishi kerak. Keyingi ixtiyoriy diqqat esa ixtiyoriy diqqatdan so'ng shakllanadi. Bu diqqat insonning kuchli iroda harakati tufayli paydo bo'lib, ixtiyoriy diqqatning o'rnini egallaydi. Ixtiyoriy diqqatda bo'lgani kabi, bu jarayonda ham maqsad aniq bo'ladi va u inson ongini bir nuqtaga to'plab beradi. Talabaning o'quv faoliyatida keyingi ixtiyoriy diqqatning ahamiyati juda katta. Talaba o'quv faoliyatining boshida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. Keyinchalik, mavzuga qiziqish paydo bo'lib, u diqqatini chalg'itmay, qiziqish bilan o'z ustida ishlashda davom etadi. Bu esa talabaning keyingi ixtiyoriy diqqatiga misol bo'la oladi. Shu tarzda, ixtiyoriy diqqatdan keyingi ixtiyoriy diqqatga o'tish jarayoni sodir bo'ladi.

#### **Xulosa:**

Ta'lim jarayonida diqqatning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, unga muvofiq dars jarayonini tashkil qilish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchi o'z psixologik bilimlaridan foydalangan holda o'quvchilarning diqqatini rivojlantirishi lozim. Diqqatni rivojlantirish usullari o'qituvchining psixologik bilimiga bog'liq. Masalan, bolalarda diqqatning taqsimlanishini rivojlantirish uchun jo'jalar yoki qo'ylarni sanashga o'xshash usullar foydali bo'lishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
2. Xo'jayev B.X. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent, "Sano-standart", 2017. – 434 b.
3. Kal Nyuport. Diqqat: Chalg'ituvchi dunyoda muvaffaqiyat sirlari. – T., Nihol nashriyoti, 2020 yil. – 230 b.

## O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI VA VUJUDGA KELISHI

*Shabbonova Anorxol Imomali qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti 1-bosqich talabasi*

*Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya*

*kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

[ulugbekshomurotov986@gmail.com](mailto:ulugbekshomurotov986@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'zbekistonda so'ngi yillarda psixologiya fanining jadallik bilan rivojlanayotganligi, ko'plab psixologiyaga doir bo'lgan darsliklar, o'quv-qo'llanmalar chop etilishini haqida. Psixologik tadqiqotlar barcha jabxalarda o'tkazilmoqda va bugungi kunda psixologiya fanining o'rni juda ham katta ahamiyatga egadir.

**Kalit so'zlar:** psixologiya, fan, rivojlanish, jadallik, o'quv-qo'llanmalar, ahamiyat.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье речь идет о бурном развитии психологической науки в Узбекистане в последние годы, о том, что издается множество учебников и учебных пособий по психологии. Психологические исследования проводятся во всех областях, и сегодня роль психологии очень важна.

Ключевые слова: психология, наука, развитие, динамика, средства обучения, значимость.

### ANNOTATION

This article is about the rapid development of the science of psychology in Uzbekistan in recent years, the fact that many psychology textbooks and training manuals are being published. Psychological research is being conducted in all fields and today the role of psychology is very important.

**Key words:** psychology, science, development, momentum, teaching aids, importance.

Psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O'zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kelayotganini ko'rish mumkin. Masalan, eramizning II-III asrlarida rivoj topgan manixizm

(asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o'z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o'ziga xosligi kabi g'oyalarni keng tashviqot qilganlar. Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik ijtimoiy psixologik qarashlar sistemasi umuman bo'lmagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Chunonchi, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70- yillarning oxiri 80- yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida, shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir. [1].

G'.B.Shoumarov va E.A. Morshinalarning (1986) tadqiqotlarida esa oilada bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar o'rganildi, chunonchi, unda o'ziga xos milliy va an'anaviy o'zaro munosaoat xususiyatlarining o'rni belgilandi.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N.Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari – nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o'rganilmagan ilmiy ma'lumotlar to'plandiki, ularga ko'ra, o'zbek oilasining qurilishiga sabab bo'ladigan asosiy motiv—bu 1 "Farzandli bulish", (birinchi o'rinda), ikkinchi o'rinda "Jamoatchilikning gap-so'ziga qolmaslik", uchinchi o'rinda "Ota-ona va qavmi-qarindoshlarning istaklarini bajo etish" va hokazolar aniqlandi. N.Sog'inovning to'plagan ma'lumotlari yosh oilalar, mojaroli oilalar va yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir.

Bundan tashqari, oxirgi yillarda katta guruhlar psixologiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazildi. Masalan, V.M.Karimovanning o'zbek xotin-kizlari ijtimoiy tasavvurlarining o'zgarishi mexanizmini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1987), E. Usmonovning o'zbek ayollarining suitsidal (ya'ni o'z-o'ziga o't qo'yish) xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1993), E. No'monovanning o'zbek oilalaridagi reproduktiv ustanovkalarining xususiyatlariga bag'ishlangan, M.Zokirovanning erkak va ayollardagi rollar hakidagi tasavvurlarning o'ziga xosligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqoti, M.Toshpo'latovning o'zbek yoshlaridagi ijtimoiy xulq-atvorning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos qirralarini o'rganishga qaratilgan ishlari va boshqalar shular jumlasidandir. Bu

tadqiqotlar natijasida yaqin kelajakda yangi etnopsixologik konsepsiya shakllanadi va bu respublikamizdagi ilmiy ishlarning rivojiga o'z hissasini qo'shadi. [2]

O'zbekistonda psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik etnik professional guruhlarga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilishi lozim. YA'ni, ishlab chikarish ijtimoiy psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari o'zbek psixologlaridan o'z echimini kutmoqdaki, ularda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanilgan holda xududning milliy o'ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.

Hozirgi zamon psixologiyasi boyib, turli-tuman bo'lib bormoqda, oxirgi yillarda psixologiyaning yangi sohalari: antropologik psixologiya, akmeologiya, tahdid va terrorizm psixologiyasi, xristianlik psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, davriy psixologiya, biokonstitutsion psixologiya, «buyukshunoslik» psixologiyasi, o'sish psixologiyasi, tirik hayot psixologiyasi, kvant psixologiyasi, tergov psixologiyasi, badiiy qabul etish psixologiyasi, psixologik adabiyotshunoslik, eshitish qobiliyatlar psixologiyasi, ko'zi ojiz kar-soqovlar psixologiyasi, kitobxonlar va kitob psixologiyasi, mavh etish psixologiyasi, tushlar va tush ko'rish psixologiyasi, sevgi psixologiyasi, inqirozli va xavfli vaziyatlar psixologiyasi, ekzoteratik psixologiya, taqdir psixologiyasi, mutaassiblik psixologiyasi, qobiliyatlar psixologiyasi, xususiylik psixologiyasi, o'quv faoliyat psixologiyasi, ayollar psixologiyasi, tobe hulq-atvor psixologiyasi, genotsid va ommaviy qotilliklar psixologiyasi, xizmat muloqoti psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi, tashqi ko'rinish psixologiyasi, oliy maktab psixologiyasi, buyruq psixologiyasi, savdo-sotiq psixologiyasi, OAV psixologiyasi, elektoral hulq-atvor psixologiyasi, erkaklar psixologiyasi, din psixologiyasi, tomalogiya, qo'rquv psixologiyasi, o'lim psixologiyasi, muqobil psixologiya va boshqalar faol shakllanib bormoqda. [3]

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va etakchidir.

Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari

bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda.

Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda. [4]

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan. «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib etishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart - sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari etarli bo'lmaydi. SHuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechoglik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniksa, ma'navi y barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan xolda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiiq etishni nazarda tutadi. SHaxsga ta'lim va tarbiya berishning alohida emas, birgalikda qaralishida pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro uzviyligi muhimdir. Hozirgi kunlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta'lim oluvchining psixologik xususiyatlarini bilgan xolda, unga pedagogik ta'sir etish va uni yangi bilimlarga yo'naltirish texnologiyasi joriy etilganligi ham bu ikki fan bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. [5]

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Абрамова, Г.С. Практическая психология: учебное пособие. Москва : Прометей, 2018. - 528 с.
2. S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 19 b.
3. Nishanova, Zamira Taskarayevna. Psixoiogik maslahat: o 'q u v qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - N 4 toplam
4. To'rt temperament :sanguine,flegmatik,xolerik va melanxolik shaxs turlari. 2017 y. - N 1 toplam.221 b.
5. Temprament 2017 y. N 1 toplam 16 b.

## **ODAM, INSON, INDIVID SHAXS VA INDIVIDUALLIK TUSHUNCHALARI**

*Toshpo'latov Firdavs Panjiyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti*

*Pedagogika fakulteti 1\_kurs talabasi*

*Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya*

*kafedrası o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

*ulugbekshomurotov986@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada “individ shaxs va induviduallik, ularning uzviy bog'liqligi va o'ziga xosligi” inson faoliyatida tutgan o'zni haqida sodda va keng ma'noda tushuncha berilgan, “individ shaxs hamda shaxs va shaxsiyat” ahamiyati yoritib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** Inson va shaxs ma'nolari, individ va induvuallik, shaxs va shaxsiyat ma'nolarini shakllantirish.

Har biro dam to'g'ilgan kundan boshlab odamlar qo'rshovida, ma'lum jamoad-oilda yashaydi. Jamiyatda rivojlanuvchi, til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatga kirishuvchi odam shaxsga voqeilikni biluvchi hamda uni o'zgartiruvchi sub'yektga aylanadi. Odam bolasini individ deyiladi. Biz hamma kishilarni-normal odamlarni yangi to'g'ilgan chaqaloqni, aqli zaiflarni individga kiritamiz.

Inson: Biz har qanday dunyoga kelgan odamni inson deb atashimiz mumkin, xoh u nogiron bo'lsin xoh yangi to'g'ilgan chaqaloq bo'lsin xoh u qari bo'lsin yoki ayol va erkak. Shaxs bilan inson o'rtasida bir muncha farqlar bor bu to'g'risida maqolamizning davomida aytib o'tamiz. Mening nazarimda hayot boshlangan davrlarda shaxslarga qaraganda insoniylik xususiyatlari ko'proq bo'lgan chunki u davrlarda inson xususiyatlardan biri yashash uchun kurash bo'lgan ya'ne qanday? Asosiy taffakur, faqat yemak topish, pana joyda saqlanish sovuq tushganda hayvonlar terisiga yopinish.

Insonlar shaxs maqomini olish uchun yillar davomida mehnat qilingan, ong rivojlangan va oxir ijtimoiy muhit shaxsni rivoj topishiga erishgan. Masalan ! biz bir bolani bir yoshgacha ustirib ya'ne yurish, ovqatlanish qobiliyatiga ega bo'lgandan keyin urmonga tashlab kelsak u bolada yashash uchun kurash tushunchasi boshlanadi u inson bo'lib usadi, lekin shaxs sifatida rivojlanmaydi.

Shaxs: shaxs bu boshqalardan farq qilgan holda o'z faoliyati va o'z xususiyatlariga ega bo'lgan alohida shaxs. Endi savol to'g'iladi shaxs bo'lib rivojlanish yoshga bog'liqmi? Yo'q bog'liq emas ya'ne uzini anglolmaydigan

chaqaloqdan tashqari, biz hatto 2-3 yoshdagi bolachalarga she'r yodlashni o'rgatsak unda shaxs bo'lib rivojlanishning birinchi pog'onalari boshlanadi. Maktabga chiqqan bolalar ham ma'lum bir faoliyat bilan shug'unlansa ularda ham shaxslik qobiliyati rivojlanadi.

Biroq shaxs va shaxsiyat bir-biriga o'xshash tushunchalardan uzoqroqdir.

Shaxsiyat tushunchasini biz aqliy rivojlanmagan insonlarga nisbattan ishlatsak bo'ladi. Masalan: kuchada qinalgan biron-bir nogiron odamlardan yordam holatini boshqa bir shaxs mazaqlab kulishi yoki u to'grida nomaqbul gap gapirishi bu uning shaxsiyatiga tegishi hisoblanadi. Hammada shaxs bo'lib rivojlanish qobiliyati bo'lmasligi mumkin lekin "shaxsiyat" hammada bo'ladi.

Shaxsiyatga kiradigan omillar quyidagilardan iborat.

- Uning avlod ajdodi qarindoshlari
- Uning to'g'ilib o'sgan joyi
- Uning bilim saviyasi
- Uning yuz tana ko'rinishlari
- Irsiy kelib chiqishi va millati hamda boshqa xususiyatlar.

Xususiyatlar: Psixologiyada shaxs nafaqat alohida shaxs sifatida balki muayyan ijtimoiy guruhning bir qismi sifatida o'rganilgan. U uchta belgi bilan tavsiflanadi.

1. Barcha psixofizologik xususiyatlarning yaxlitligi va hamjamiyati;
2. Jamiyat ta'sirida ma'lum qarshilik va atrof;
3. O'z pozitsiyasining va faoliyatining mavjudligi

Yuqoridagi xususiyatlar inobatga olgan holda ijtimoiy tashkilotda shaxs ongli ravishda qo'yilgan biologik cheklolarni, uning xulq atvorini modelini boshqarish va o'zgartirish va barcha yuqori psixologik jarayonlarni boshqarish imkoniyatiga ega. Yana bir shaxsning xususiyati shundan iborat bo'ladiki u har qanday vaziyatda o'z xohish irodasini o'zgartirishga va to'siqlarni yengishga qodir.

Sog'lom shaxsning shakllanishida, uning oila ichidagi munosabati ota-onasining olgan tarbiyasi va farzandiga berayotgan tarbiyasiga bog'liqdir. Shaxs va jamiyat bir-biriga bog'liqdir.

Jamiyat jismoniy shaxslarsiz mavjud bo'lmaydi, ular doim bir-birini to'ldiradi. Shaxs - bu uning ong va faoliyatining individual qobiliyatlari va individa ifodalangan shaxsning intellektual madaniy axloqiy va ixtiyoriy xususiyatlarining dinamik, nisbattan barqaror yaxlitligi. Shaxs bu umumiy ijtimoiy va axloqiy, maxsus sinf, milliy va alohida shaxsning dialektlik birligi. Maxsus tarixiy holatlarda, shaxsiyat ijtimoiy tizim tomonidan belgilangan yaxlitlik kabi harakat qiladi. Shaxs bu ijtimoiy hodisa sifatida shaxsning haqiqati va turli xil ijtimoiy aloqalarning turli xil mavzularidir. Shaxsiylikning ijtimoiy fazilatlarini uning harakatlarida, munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ushbu harakatlarga ko'ra, ma'lum darajada shaxsning ichki

dunyosida, ijobiy va salbiy fazilatlarining ma'naviy va axloqiy fazilatlarga baho berish mumkin.

Individ lotincha “individium” so'zidan kelib chiqqan bo'lib “bo'linmas”, “alohida”, “yagona” ma'nolarini anglatadi. Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni bajaradi. Biroq bu harakatlar keyinchalik reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Go'dakda nutqning rivojlanishi shuningdek uning tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo'la boshlashi va albatta ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokning ro'yi berishi shaxs shakllanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi.

Individual-yuqorida ta'kidlaganimizdek har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan uxshash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo'yi -basti bilan boshqa biror kimsaga uxshashi mumkin, lekin fe'li, mijozi, va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtayi nazaridan aynan bir xil insonlar bo'lmaydi. Hatto bir tuxumdan chiqqan egizaklarni ham faqri bo'ladi.

Shaxs-qaytarilmas, u o'z sifatleri va borligi bilan noyobdir ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi.

#### REFERENCES

1. Omonov. A.O. O. & Haydarov. S.A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRIGIYA PODSHOLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
2. Turg'Unboyeva, M., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA “O'TTIZ YILLIK URUSH” NING AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
3. Ashirova, N. X. Q., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA QADIMGI HINDISTON MADANIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
4. Yoriqulov, A. S. O. G. L., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA HIND SIVILIZATSIYASI O'RNI. *Scientific progress*, 1(5).
5. Rahimberdiyev, A. E. O. G. L., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA ELAM DAVLATCHILIGINING O'RNI VA AHAMIYATI. *Scientific progress*, 1(5).
6. Nomozov, M. M. O., & Haydarov, S. A. (2021). OZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. *Scientific progress*, 1(5).
7. Fayziyeva, Y. I. Q., & Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'QITISHDA SURIYA VA FINIKIYA PODSHOLIGI O'RGANILISHI. *Scientific progress*, 1(5)

8. Haydarov, S. A. (2021). TARIX FANINI O'RGANISHDA FRANKLAR DAVLATI O'RNI VA ANAMYATI. *Scientific progress*, 1(5).
9. Амиркулович, X. С. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАСВИРИЙ САЊЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Scientific progress*, 1(3).
10. Амиркулович, X. У. (2021). ТАРИХ ДАРСЛАРИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МИНИАТЮРАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ. *Scientific progress*, 1(3).
11. Хайдаров С. (2021). Ўзбекистон тарихини ўқитишда миллий миниатюрадан фойдаланиш (Бобурнома мисолида). *Academic Research in Educational Sciences*. 2 (7). 760-764.

## BOBURNING SAMARQANDGA YURISHLARI

*Boyto'rayev Sirojiddin Usmon o'g'li*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*o'qituvchisi*

*Badalov Diyorbek Murodjon o'g'li*

*Qurbonov Doston Ilhom o'g'li*

*DTPI Pedagogika fakulteti*

*Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mirzo Boburning bobo yurti Samarqand shahrini egallashga bo'lgan urinishlari, bir necha bir qo'lga kiritib, Shayboniyxon va Shayboniylar bilan janglardan so'ng yana tashlab chiqqani haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** "Eski shahar", Obirahmat, "laq-laq", Kuxak, Boburnoma, Biri shamol, Bog'i Bihisht.

### KIRISH

Samarqand- sivilizatsiyaning qadimiy shaharlari va markazlaridan biri bo'lib, butun dunyo madaniyati va fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. O'zbek xalqi, O'rta Osiyoning barcha xalqlari boy va shonli tarixga ega bo'lgan O'rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy hayotida katta rol o'ynagan Samarqand shahri bilan xaqli ravishda fahrlandilar.

Bu shahar Chingizxonning istilochilar yurishlari natijasida 1229-yilda shahar yer bilan yakson qilib yuborildi va so'ngra shahar Afrosiyob chegarasidan tashqarida bo'lgan yangi joyda, hozirgi "Eski shahar" territoriyasida vujudga keldi. Samarqand hayotining yangi davri XIV asrning oxirlariga to'g'ri kelib, bu davrda u Temuriylar davlatining poytaxtiga aylandi.

Temuriylar saltanati davrida Samarqand shahri gullab-yashnadi. Temuriy shaxzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining yuksak mavqe'ga ega bo'lgan "Boburnoma" asarida bu shaharni juda go'zal tasvirlagan. Samarqand shahri – ajoyib orasta bir shahardir. Bu shaharning bir hususiyati borki, bunaqasi kamdan- kam shaharda bo'ladi, ya'ni har hunarmandning alohida bozori bor, bir-biriga aralashgan emas, bu qiziq rasmdir. Yaxshi novvoyliklari va oshpazliklari bordir. Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddan chiqadi. Qog'oz juvozlariga suv butkul Konigildan keladi. Konigil- Siyohob yoqasidadirki, bu Qorasuvni Obirahmat ham deydilar. Samarqand qal'asining ichida yana bir qadimiy imorat bor. Uni Masjidi Laqlaqa deydilar. Uning gumbazi o'rtasida yerni tepsalar, butun gumbazdan "laq-laq" tovushi keladi, qiziq narsadir. Hech kim buning sirini bilmaydi.

Temuriy shahzoda, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad bobur ana shunday

g'ozal shaharni egallashga bir necha bor urindi. Lekin taqdir taqozosi bilan Boburga Samarqandda muqim hukmronlik qilish nasib etmadi. Har gal bu yurtni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi.

901 (1495-1496) yili shavvol oyida Buxoro va Hisor sultonlari bila birgalashib, Bobur Samarqand qamalida qatnashdi. Uch-to'rt oy davom etgan qamal natija bermadi. Qish havosi sovuq, shahar mudofaasi kuchli edi. Qamal qilganlar hech narsaga erisha olmay, o'z yurtlariga qaytdilar. 903 (1497-1498)- yili Samarqandda yuz bergan siyosiy boshboshdoqlikdan foydalanib, Bobur harbiy yurish qilib borib, Samarqandni egalladi.

“Boburnoma”da Samarqand taxtiga o'tirganligi haqida shunday yozilgan : “Samaqand taxtiga o'lturg'och, Samarqand beklarini burungudek o'q rrioyat va inoyat qildim. Bizning bila bo'lg'on beklarni ham faroxo'ri hollariga yarasha tarbiyat va shafkat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasig'a rioyat ko'prak voqe bo'ldi. Ichki beklar chargasiga edi, ulug' beklar chargasida rioyat qildim. Samarqandikim, yetti oy muhozara qilib, tashvishlar bila olduk, avval kelganda cherik eliga o'lja- mo'ljadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o'zga jami viloyatlar mahga kirib edi , yo Sulton Ali mirzog'a bu kirgan viloyatlarni topib bo'lmas edi. Muncha talon-taroj tortg'on viloyatlardin nima olmaq xud nechuk muyassar bo'lg'ay edi”.

Bu Boburning Samarqand shahri va viloyatini birinchi bor o'z hukmiga o'tkazishi edi. Bobur Samarqandda yuz kun hukmronlik qildi. Andijonda fitna qo'zg'algani to'g'risida habar kelgach, u Andijon sari otlandi. Ammo Andijonni qaytarib olmoq iloji bo'lmadi. Samarqanddan ham mahrum bo'ldi. Bobur sarsonlikda qoldi.

Bobur va uning odamlari shahar va viloyatdan mahrum bo'lib, tentirab qoldilar. Ba'zi navkarlar Boburdan ajralib har tarafga keta boshladilar. Bobur o'ziga sodiq qolganodamlar bilan tog'lar osha, yaylovlar o'ta Kuxak daryosi bo'yiga yetib keldi. Bu vaqtda Bobur bilan ikki yuz qirq kishigina qolgan edi. Shu askar bilan Bobur 906 (1500) – yil Samarqandga hujum qilib uni egalladi. Shunda Bobur o'n to'qqiz yoshda edi. Bu Bobur tomonidan Samarqandning ikkinchi qayta egallanishi edi.

Bu yurish haqida ko'plab yozuvchilarimiz o'zlarining asarlarida turlicha tariflaganlar. Shularning birida :

“Cherik elining o'lchasi tugandi. Samarqandni olg'onda andoq xarob edikim, madan va tuxm vataqovig'a ehtiyoj bor edi. Chi joyi ulkim, kishi andin nima ola olg'ay. Bu jihatlardin cherik eli ko'p tanqislik tortdilar. Biz ham elga nima yetkura olmaduk. Uylarini ham sog'indilar. Biror-ikkirar qochmoqg'a yuz qo'yidilar. Avval kishikim qochdi Xonquli Bayonquli edi, yana Ibrohim Bekchik edi. Mo'g'ullar tamom qochdilar. So'ngra Ahmad Tanbal ham qochdi. Uzun Xasan Xojig'a o'zini xeyli muxlis va mutaqid tutar edi. Uzun Xasan ittifoqi birla qochqonlarning ba'zisig'a sazo berggaylar , ba'zisini bizning qoshimizga' yuborgaylar”- deya yozilgan.

Samarqand shahri egallanganidan so'ng shahar a'yonlari Boburga sadoqat izhor qildilar. Shoirlar bu g'alaba uchun “Fathi Bobur bahodurast, bidon” (Bilgil, Bobur

bahodir fathidir) deb tarix tushurdilar. Atrof viloyatlardan Boburga yordam uchun qo'shinlar kela boshladi. Bobur katta kuch yig'ib Saripul degan joyda Shayboniyxon qo'shini bilan to'qnashdi. Bu jangda Shayboniyxon qo'shini ustun chiqdi. Bobur o'z odamlari bilan shaharga kirib darvozalarni berkitdi. Shayboniyxon Samarqandni qamal qildi. Bobur qo'shini va Samarqand xalqi qamalda og'ir azoblarni boshdan kechirdilar. Shaharda oziq-ovqat qolmadi. Hech qayerdan yordam kelmadi. Boburning ba'zi lashkarboshilari o'z odamlari bilan shahardan chiqib, qocha boshladilar. Shu vaqt Shayboniyxon sulh taklif qildi. Bobur noiloj bu taklifni qabul qildi va bir guruh sodiq odamlari bilan Shayxzoda darvozasi orqali Samarqanddan chiqib ketdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur garchi ikkinchi bor yengilgan bo'lsada, ammo o'z yurtini mo'g'ullardan qaytarib olish niyyatidan hali hanuz qaytmagan edi. Shuning uchun shaxzoda Bobur yana yurti tomon oshiqdi.

Bobur 909 (1504-1504)-yili rabbiyul avval oyining oxirida Kobul va G'azna viloyatlarini egalladi. Boburning o'z vataniga qaytmoq yo'lidagi keyingi intilishlari ham muvaffaqiyatsiz chiqdi. Eron shohi Ismoil Safaviy Shayboniyxon ustidan g'alaba qozonganidan so'ng, shohning yordami bilan Bobur uchinchi bor Samarqandni oldi. Ammo siyosiy voqealarning borishi shunday bo'ldiki, Bobur bu safar ham Samarqandni qoldirib ketdi. Shundan keyin Boburga o'z ona vataniga qaytmoq nasib bo'lmadi.

Bobur o'z yurini qaytarib olish uchun qanchalik qattiq harakat qilsa ham, ammo taqdir taqozosi bilan unga bu baxt nasib etmadi. Shunday ekan u o'z asarida bu yurti ta'riflashni unutmadi, nafaqat unutish, balki bu yurti qancha ta'riflasa ham nihoyasiga yetkaza olmadi. Bu go'zal shahar Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur asaridan beqiyos o'rin olgan.

U “Boburnoma”da bu shaharni shunday tasvirlagan: Samarqand bog'larining tasvirida Bobur Bobokalonining bunyodkorligiga havas bilan boqqani, payti kelib o'zi ham shunday bog'larni yaratishni orzu qilgan bo'lishi mumkin: “ Amir Temur Samarqand shahrida ikki bog' solibtur, birikim yiroqroqtur, Bog'i Bo'ldudur, yovuqrog'i Bog'i Dilkushodur. Andin Feruza darvozasigacha xiyobon qilib, u ikki tarafida terak yig'ochlari ektirubdur. Dilkushoda ham ulug' ko'shk soldiribdur, ul ko'shkka Temurbekning Hinduston urushini tasvir qilibturlar. Yana Pushtayi Ko'xakningdomanasida Konigilning Qora suyi ustidakim, bu suvni Obi Raxmat ham derlar, bir bog'solibtur Naqshi Jahonga mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bog' buzulub edi. Oti besh qolmaydur edi. Yana Samarqandning janubida Bog'i Chanordur, qal'aga yovuqtur. Yana Samarqandning kuyi yonida Bog'i Shamol va Bog'i Bihishttur”.

Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqandga o'zgacha mehr bilan qaragan, bir umrunga intilgan. Samarqandni qo'lga kiritib, Sohibqiron Amir Temur Saltanatini tiklash uning eng buyuk orzusi edi. Ana shu maqsad yo'lida Bobur uzoq vaqt davomida jangu jadallar olib borgan. Va uch marta mazkur shaharni egallashga muvaffaq bo'lgan

(1497-1500-1511).

### REFERENCES

1. I.M.Mo'minov "Samarqand Tarixi 1-qism"-T.: "FAN" nashriyoti, 1971
2. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi-T.: "SHARQ" n, 2017
3. Boburnoma-T.: "O'qituvchi" n, 2017
4. A.Qayumov "Zahiriddin Muhammad Bobur"-T.: "FAN" nashriyoti, 2008

## TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
1	ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING XAYOL XUSUSIYATLARI	3
2	LITERATURE AND ITS ROLE IN HUMAN LIFE	7
3	KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA (O'QUVCHILARGA) XORIJIY TILLARNI (INGILIZ TILINI) O'RGATISHNING INTERFAOL USULLARDA O'RGATISH METODIKASI	12
4	ПОЛОВЫЕ РАЗЛИЧИЯ КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ	15
5	РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ	18
6	ADOPTED NEOLOGISMS INTO THE UZBEK LANGUAGE FROM ENGLISH LANGUAGE	21
7	HOW TO TRANSLATE NEOLOGISMS IN ENGLISH	24
8	ЁШЛАР ОРАСИДА ГИЁҲВАНДЛИК ВОСИТАЛАРИНИНГ НОҚОНУНИЙ МУОМАЛАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШНИНГ ЎРНИ	28
9	INTEGRAL VA UNING TADBIQLARI	34
10	BIOLOGIYA FANINI O'QITISH METODLARI	38
11	NANO-BIOPHARMACEUTICS AND DRUG DELIVERY SYSTEMS BASED ON NANOPARTICLES	41
12	ДОРИВОР ЯНТОҚ - «САҲРО ПАМЗИ»	45
13	SURUNKALI ALLERGIK RINITNI DAVOLASHDA QICHITQI O'TNI QO'LLASH SAMARADORLIGI VA XAVFSIZLIG	54
14	LOYIHALAR BOSHQARUVIDA JAMOALARNING FAOLIYATIGA TURLI MOTIVATSIYA TURLARINING TA'SIRI	62
15	QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING ROLI: XALQARO VA MAHALLIY TAJRIBA	72
16	TIJORAT BANKLARIDA XUSUSIY KAPITAL TO'GRISIDAGI HISOBOTNI TAKOMILLASHTIRISH	77
17	MUDDATI O'TGAN DEBITOR VA KREDITOR QARZLAR AUDITI	83
18	TIJORAT BANKLARIDA XUSUSIY KAPITAL TO'G'RISIDAGI HISOBOTNI TAKOMILLASHTIRISH	90
19	MUDDATI O'TGAN DEBITOR VA KREDITOR QARZLAR AUDITI	95

20	HISSIIY CHARCHOQNI YUZAGA KELTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR	103
21	PEDAGOGIK JAMOANING PSIXOLOGIK SALOMATLIGI	108
22	MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY SIFATLARNI SPORT O'YINLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH	116
23	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA QOGIRCHOQ TEATRI PERSONAJLARINI YASASH ORQALI BADIY IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	120
24	MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASH SHAKLLARI, VOSITA VA USULLARI	125
25	TARBIYACHINING IJTIMOY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI	129
26	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH USULLARI	134
27	DIDAKTIK O'YINLAR ASOSIDA BOLALARNING AQLIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI	137
28	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISH ORQALI AHLOQIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH	140
29	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AXLOQIY TARBIYANING UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI	144
30	O'YINCHOQLAR ASOSIDA AQLIY RIVOJLANTIRISH	148
31	INTERNATIONAL PROGRAM'S EFFECTS ON THE NATIONAL EDUCATION SYSTEM	153
32	ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ ХИЗМАТЛАРИ КЎРСАТИШ ШАРТНОМАЛАРИНИ ТУЗИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	157
33	FALSAFA TARIXI FAN SIFATIDA	163
34	TARBIYANING UMUMIY METODLARI VA O'QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH. AQLIY, IQTISODIY VA EKOLOGIK TARBIYA	167
35	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR E'TIBORINING O'ZIGA XOSLIGI	170
36	BOLA PSIXOLOGIYASI BO'YICHA ILMIY TARAFDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	172
37	O'QUVCHILARNING DIQQATINI RIVOJLANTIRISH	176
38	O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI VA VUJUDGA KELISHI	179
39	ODAM, INSON, INDIVID SHAXS VA INDIVIDUALLIK TUSHUNCHALARI	183
40	BOBURNING SAMARQANDGA YURISHLARI	187

***Eslatma!***— **Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi jurnali** *ma'naviy – ma'rifiy* ilmiy ommabop jurnal, o'zbek, rus va ingliz tillarida bir oyda bir marotaba elektron tarzda internet tarmog'ida tarqatiladi va nufuzli xalqaro bazalarda indekslanadi.

**Bosh muharrir:**  
**Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

**Mas'ul kotib:**  
**Vahobov Adxamjon Bahodirovich**

**Dizayn muharriri:**  
**Xoliqov Tohirjon Shavkatjon o'g'li**